

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKUL`TETI

BOSHLANG`ICH TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI

«ONA TILI»

fanidan

MASHQLAR MAJMUASI



Namangan – 2010-yil

Mazkur «Ona tili fanidan mashqlar majmuasi» bo`yicha o`quv-uslubiy ko`rsatma boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, kunduzgi bo`lim, 2-kurs talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda ona tilidan mashqlar, qoidalar, topshiriqlar keltirilgan.

Muallif: f.f.n., dotsent M.Hamidova

Taqrizchilar: p.f.n., dotsent K.Abdullayev
katta o`qituvchi D.Tojiboyeva

Ushbu «Ona tili» fanidan tayyorlangan o`quv-uslubiy ko`rsatma Nam DU ning boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasining umumiy yig`ilishida ko`rib chiqilgan va nashr etishga tavsiya qilingan.

2011 yil 25 yanvar № 6-sonli yig`ilish bayoni.

Kafedra mudiri: p.f.n A.Sobirov

Mazkur «Ona tili» fanidan tayyorlangan o`quv-uslubiy ko`rsatma Pedagogika fakulteti uslubiy kengashida ko`rib chiqilgan va nashr qilishga tavsiya etilgan.

2011 yil «____» _____-sonli yig`ilish bayoni

Fakultet dekani:

dotsent Sh.Jo`rboev

Ushbu o`quv-uslubiy ko`rsatma Nam DUning uslubiy kengashida ko`rib chiqlgan va chop etishga tavsiya qilingan.

2011-yil «___» _____ -sonli yig`ilish bayoni.

O`quv-uslubiy kengash

raisi:

dotsent B.Talapov

So`z boshi.

0'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

Jamiyat hayotidagi bunday o'zgarishlar o'zbek xalqining tilida ham o'z ifodasini topdi. O'zbek tilining jamiyat a'zolari o'rtaida qo'llanish doirasi kengaydi. Xususan, barcha ta'lim turida o'qitila boshlanishi buning yorqin dalilidir. Bu hol o'zbek tilini o'qitish usulini yanada takomiillashtirishni talab etadi. Ilgari ko'proq nazariy masalalar asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, endilikda tildan amaliy foydalanish, uning o'ziga xos xususiyatlarini mustaqil o'rganish talab qilinmoqda.

Mazkur uslubiy korsatma maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash Davlat standartlari dasturi talablari asosida tuzildi. Ushbu uslubiy korsatma tilshunoslik bo'limlarining hammasini o'z qamroviga olgan. Mashqlarni bajarish uslublari aniq belgilangan bo'lib, talab

qilingan shartlar talabalarning ona tilidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashni, o'z ustida mustaqil ishslashni talab etadi.

Bundan tashqari, ta'lif bilan tarbiyaning uzviy bog'liq ekanligini kiritilgan gaplar tarkibida xalq maqollari, tarbiyaviy xarakterdagi gaplar milliy ensiklopediyadan keltirilgan dalillar, badiiy asarlar hissi-ta'siri ma'noli misollar, allomalamizng xulosaviy iboralaridan foydalanilgan.

Mashqlar majmuasida o'zbek tili grammatika qoidalarini qiziqib, puxta o'zlashtirishlariga, yozma va og'zaki nutqlarini o'stirishga, ulani jonli so'z boyligini oshirishga e'tibor berildi.

Mazkur uslubiy korsatmani yozishda ilmiy-uslubiy jihatdan oliy, o'quv yurtlarining o'zbek tili o'qitish bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar hamda o'zbek tilshunosligidagi nazariy va o'quv-uslubiy adabiyotlar asos qilib olingan.

Mavzu: So`zlarning leksik va grammatik ma`nolari yuzasidan 1-5-mashqlar.

MORFOLOGIYA

Mavzulrni qisqacha konspektlashtiring. Morfologiya grammaticaning bir qismi ekanligi. So'zning grammatic shakli va grammatic ma'nosi. Grammatic ma'noning ikki turi: a) ma'lum bir so'z turkumi uchun umumiyl bo'lgan ma'no (predmet); b) so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shilishi (shaxs-son, zamon) grammatic ma'noning grammatic ko'rsatkich ekanligi.

0'qish uchun adabiyotlar:

1. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent, 1992.-B. 239-245; 247-250.
2. G'. Abdurahmonov, A.Rafievv, D.Shodmonqulov. O'zbek tilining amaliy grammaticasi.- Toshkent: O'qituvchi, 1992.-B. 117-136.
3. Sh.Shoabdurahmonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: O'qituvchi, 1980.- B. 224-242.

1-mashq. Gaplarni o`qing. Mustaqil so`zlarning leksik va grammatik ma`nolarini aniqlang.

Namuna: Bu-leksik ma'nosi: ko'rsatish, grammatic ma'nosi: olmosh, ko'rsatish olmoshi, birlikda, bosh kelishikda; sintaktik vazifikasi: sifatlovchi aniqlovchi.

1. Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona tinglardi. (Mirm.) 2. Dilshod kitobni yopdi, ildam odimlar bilan hovli tomon ketdi. (M.I.) 3. Atrofi ko'k panjaralar bilan o`ralgan ulkan bog` darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to'kib turibdi. (J.Abd.) 4. Yo`lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. (O.)

2-mashq. Berilgan gaplarni o`qing, ajratib ko`rsatilgan so`zlardan grammatic ma`noni ifodalovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Dehqonni yer davolaydi. **Urug` bilan birga** orzu, dard-hasrat, quvonchlarini ham **yerga** to'kadi. (S.Nurov.) 2. Gulnorning g`oyib bo`lishi Yo`lchiga **yashin urgan kabi** ta`sir ko`rsatdi. (O.) 3. Zufar Hakimovichning **yuzida** ham endi bezovtalik ifodasi yo`q edi. (P.Q.) 4. Ona **mehriga tenglashadigan** mehr-muhabbat olamda topilmikan? (Yo.Shukurov.)

3-mashq. O`qing. Mustaqil so`zlarni morfemalarga ajrating: o`zak va shakllarni (modal shakl va so`z o`zgartish shakli) ko`rsating.

Namuna: ko`zlarini ko`zG`larG`iG`ni -so`z o`zgartish shakli; jilmayib-jilmayG`ib-modal shakl.

1. Kampir ko`zlarini ochdi va ro`parasida jilmayib turgan yigitga tikildi. (H.N.) 2. Qunduz universitetning uchinchi kursida o`qir, uning maqsadi hayvonot dunyosini o`rganish, shu sohada ilmiy ish bilan shug`ullanish ekan. (J.Abd.) 3. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (O.Jo`rayev.) 4. Bu-faqat bizning asrimiz kishilarining aqlqzakovati, kuch-qudratiga xos inshoot (A.Nazarov.) 5. Ko`zlarida bo`lsa ko`zoynak, Kitoblarin soni juda ko`p. (Mirm.)

4-mashq. Ko`chiring. Mustaqil so`zlarni aniqlab, qanday savolga javob bo`lishini aytинг.

1. Rais uning ko`ziga kamsavlatroq ko`rindi. (A.Q.) 2. Anjirlar obdan sarg`aygan, anorlar endi piyoladay bo`lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko`m-ko`k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. (H.G.) 3. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi. (A.Nazarov.) 4.O`ktamning sal suzuk ko`zları endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. (O.) 5. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to`g`ri keldi. (A.Q.)

5-mashq. Ko`chiring. Mustaqil so`zlarni aniqlab, qanday savolga javob bo`lishini ayting.

Mehmondorchilikdan qaytgandan so`ng Zaynab kiyimlarini elektr dazmol bilan dazmolladi, qunt bilan taxlab chamadonchasiga joyladi-da, radiopriyomnikni qo`yib, «Pikovaya dama» operasini o`zbekchasiga tingladi. Zaynab ertaga jo`nashini eslarkan, yuragi allanechuk zirqirab ketdi. Kolxoza unga yoqqan, kolxozchilarning kattasiyu kichigi, erkagiyu ayoli unga tug`ishganday yaqin edi. Hatto uning mehnatda botir, yuragi sof vas amimiy «oshiqlari» ham bor. Hamisha g`ayrati toshgan, shijoatli, xushchaqchaq yosh kolxozchi To`g`on Boshqov bilan birga dalada ishlaganda charchaydimi kishi. To`ti xoladay to`qqiz o`g`ilning onasi, majlisda notiq, terimda devkor ayolni jordan sevmaslik mumkinmi? (Oybek.)

Uyga vazifa: Ko`chiring. So`zlarning tuzilishiga ko`ra turlarini aniqlang. Qo`shma, juft va murakkab so`zlarni alohida-alohida ko`chiring.

Egnida qizg`ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog`ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako`l telpak. Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, to`pponcha, qora qosh, xushmo`ylov, xushqomat, behad ko`rkam Haydarbek qurolli ikki yigit o`rtasida, qo`li ko`ksida, bosh egib, o`ng va so`lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg`umi, payqab bo`lmash edi. (N.Safarov.)

OT -SO'Z TURKUMI

Mavzu: Otlarning ma`no turlari yuzasidan 6-10-mashqlarni bajarish.

6-mashq. Gaplardagi atoqli otlarni aniqlab, guruhlarga bo`lib yozing.

N a m u n a : Xuroson – joy nomi.

1. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o`zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (O.) 2. “Toshkent” mehmonxonasi, Navoiy teatri..., yigirma qavatlari bino – xammasi xuddi kaftda turgandek aniq ko`rinadi. (P.Q.) 3. Ikki yildirki, Mosh ular xonardonining haqiqiy a`zosi bo`lib qolgandi. (S.Ahm.) 4. Hali u stolni yasatib ulgurmagan ham ediki, cho`pon yigit “Moskvich”da to`rxalta to`la baliq olib keldi.(S.Ahm.) 5. Kasalxona hovlisiga kirishlari bilan mashina to`xtab, Chuvrindi tushib qoldi. (T.Malik) 6. Handalak shahriga qarab o`qdek uchib boryapman. (X.To`xtaboyev) 7. Jamshid Shilimshiqning gaplarini qaydan bilsin.(T.Malik) 8. Biz xam shunaqa bo`ldik. Bo`lmasa men қayokda-yu, Mu Ti qayoqda-yu, Gu La xola qayoqda edi. (X.To`xtaboyev) 9. Qora Lochin jangga jo`nagan va qaytmagan otlar nomidan namoyishga qatnashayotganini hamma bilardi. (S.Ahm.)

7-mashq. Turdosh otlarni yakka va jamlovchi otlarga ajratib yozing.

1. - Davlat uchun qo`shinning ne darajada kerakli ekanini biz ham bilurmiz, - majlisga qarab gapirdi Navoiy. (O.) 2. Sultonmurod o`zini chetga olishga tirishsa ham, xalq to`lqini uni surib ketdi.(O.) 3. Tongda qirga ketgan podalarning kechda ma`rashib, bolalarini sog`inib yelib-yugurib qaytishlari kanday go`zal! (Sh.) 4. Dastani shu erga tushiramanu, nari yoqqa borib aravani yana Qoravoya beraman. (S.Ahm.) 5. Shu asnoda dala yo`lidan chang va suron bilan paxta karvoni chiqib, katta yo`lga qo`shildi.(O.) 6. Hamma ham oshna bo`lsa, butun kollektiv bir og`ayni bo`lsa, qandoq yaxshi. (S.Ahm.) 7. Qancha qishloqlar yaralib, qancha-qanchasi yemirildi, qancha elatlar keldi, ketdi, qanchasi bir umrga turun bo`lib qoldi. (J.Abd.) 8. Namozi asrga yaqin olomonning g`azabi asta-asta Sovuna boshlab, bir qismi tarqaldi. (O.) 9. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo`tabar bo`lsin. (O.) 10. Nimasini aytasiz, tor-mor keltirilgan korpus qoldiqlaridan yangi armiya tuzish qiyin bo`ladi. (L.Jarikov) 11. Butun jamoaning senga qahri keldi, nimaga desang, sen jamoaning o`rmoni bilan yaylovini o`zingga qaratib olding, hatto rozimi-yo`qligini jamoadan so`ramading ham. (I.Franko)

8-mashq. Turdosh otlarni aniq va mavhum otlarga ajratib yozing.

1. Butun falokat va razolat ana shunda. (S.Ahm.) 2. Eshik ochilib, Saidiyning xayoli patday to`zidi.(A.K.) 3. Biroq uyqu qayqdida deysiz, miyasini o`yib turgan xayollar unga tinchlik berarmidi! (J.Abd.) 4. Sanobarning yuragida ham allaqanday g`ashlik uyg`ongan, ammo iloji qancha, haqiqatni yashira olmasdi. (J.Abd.) 5. Katta, favqulodda voqeа qarshisida

inson har narsani unutib, yolg'iz shu voqeanning hayajoni, sezgisiga berilganidek, yosh olim ham butun vujudi bilan xalq fikriga, xalq dardiga qiziqdi.(O.) 6. Qachon oradan bu xijolatlik ko'tarilib, gunohim yuvilganini his etsam, bu xususda qayta og'iz ochmayman. (R.Tagor) 7. Ammo rostgo'ylikning afzalligini, go'zalligini kim bilmaydi? (P.Q.) 8. Toki ishi tushib kelgan kishi o'z ishini qanchalik tezlik va puxtalik bilan bajarganligini bilib qoyil bo'lib ketsin.(G'.G') 9. Qani bir nay bo'lsa, Yo'ichi ham chalsa-da, butun ko'ngil qayg'ularini, oila o'chog'idan ayrilgan g'arib, tanho ruhning to'lqinlarini kechaning sukul to'la og'ushiga qo'ysa... (O.) 10. O'zlarining rohatlari-yu lazzatlaridan boshqa narsani tan olishmaydi.(P.Q.)

9-mashq. Matnni o'qing. Otlarni topib, ma'no jihatidan turini ayting.

O'ktam jiydazordan o'tishi bilanoq, paxta maydonlari butun ulkanligi, salobat va go'zalligi bilan qarshisida ochildi. Har tomonda traktor yo ot bilan kultivatsiya yoki ketmon bilan chopiq qizg'in bormoqda edi. Sobiq dala botiri – Paxtakor yigitning yuragi zavqqa to'lib ketdi. «Qahramon» kolxozining g'o'zalariga sinovchi ko'zlari bilan qarab, tekshirib bordi. Nogahon u Sobirning zvenosi uchastkasiga chiqib qoldi. Dalaning etagida traktor baland g'o'zaga xalal bermay, kultivator bilan egatlarni bir tekis chuqurlikda yorib, tuproqni so'lqillatib borar ediki, g'o'za parvarishining va ayniqsa, chopiqning butun mashaqqatini bir qarich yoshdan juda yaxshi bilgan O'ktam mashina ishining tezligi va sifatiga Yana bir kara qoyil qoldi. (O.)

10-mashq. Ko`chiring. Yakka va jamlovchi otlarni aniqlang, farqini tushuntiring.

1. Bu ishlarning bari xalqimizning uyushqoqligidadir, do'starim. (O.) 2. Xonga urush ochmoqni, U xayol qilar edi, El buni bilar edi. (H.O.) 3. U doim boqib poda, Yurar edi sahroda. (H.O.) 4. Bolam, endi yurt tinchib qoldi, Elu xalq erkin tin oldi. (H.O.) 5. Mamlakatning sardoriga peshvoz bo'ldi fuqaro. (Sh.Rustaveli.) 6. Lashkar uchun dasturxonni yozib qo'ydirib, Mehmonlarga ularshdi shoh shohlarga xos sovg`alar.(Sh.Rustaveli.) 7. Qo'shin borar, orqasidan borar edi yuk karvon.(Sh.Rustaveli.) 8. Ko'k va yashil kiyimdagи olomon tik turishib, Sevinch yoshin to'kar edi Aftondilni ko'rishib. (Sh.Rustaveli.)

Uyga vazifa: Quyidagi savollarga yozma javob bering: atoqli otlarni bosh harf bilan yozilishini unutmang.

1. O'zbekistondagi shaharlardan qaysilarining nomini bilasiz?
2. O'zingiz bilgan daryo va dengiz nomlarini yozing.
3. So'nggi vaqtarda qanday kitoblarni o'qidingiz?
4. Sizning viloyatingizda Ulug` Vatan urushi qahramonlari bormi? Ular kimlar?

Mavzu: Otlarda son va egalik kategoriyasiga doir 11-15-mashqlarni bajarish.

11-mashq. O'king. Birlik va ko'plik shakldagi otlarni aniqlang.

1. Tankka qarshi to'plar, tanklarni yaqin, go'yo mana-mana sapchish bilan bosib, yanchib keta oladigan masofaga keltirib, omonsiz o'tga tutardilar.(O.) 2. To'rtta qishloqchadagi yuz sakson xonardonning televizorini o'chirdi. (S.Ahm.) 3. Shu payt qayerdadir yuqorida, jar ustidagi bog'lar orasida, ayol kishilarning shivir-shiviri va bo'g'iq kulgisi eshitildi. (O.Yo.) 4. Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.(A.Q.) 5. Qishloq o'tasidan kesib o'tgan soyning shovillashi eshitilmas, faqat daraxtorlar, xarsanglar orasidan buralib-buralib o'tishi ajib bir manzara hosil qilar edi. (S.Ahm.) 6. Eh, bu suvlarning yo'llari shunday uzunki, bulutlarni, o'z qo'ynda saqlagan cho'qqili tog'lar bag'ridan tushib, yerlarga bir umr ko'klam to'shalgan baxmal qirlar, bog'lardan yorib, lab tashna cho'llarni qoniqtirib, quyuq o'rmonlarni oralab bizga kelgan bu suvlar.(G'.G') 7. Shuning singari o'y- xayollarga botib, mo'ljallagan miqdorini o'rib bo'ldi.(O.) 8. Kim biladi deysiz, yana qancha yuz yillar shunday turarkin! (J.Abd.) 9. Qora balolarning qanotlari on sari o'sdi, mash`um sadolarning to'lqini zo'raya bordi. (O.)

12-mashq. Ko'plikdagи otlarni morfologik, leksik va leksik-morfologik usulda ko'plikning ifodalanishi bo'yicha guruhlarga ajratib yozing.

N a m u n a : O'nta bola – leksik usul; bolalar – morfologik usul; ko'p odamlar – leksik-morfologik usul.

1. Necha yuz odam uy-joysiz azoblanib yurgandan ko'ra ko'chaning bir-ikki marta ortiqroq kavlangani afzalroq emasmi? (P.Q.) 2. Qizcha yalt etib qaradi – uning lo'ppi yuzlaridan tomchilar yumanardi. (O.) 3. O'rtada bir necha qizlar raqsga tushmoqda – jonli, sho'x, tetik raqs. (O.) 4. Tepada zing'illab uchgan snaryadlar, minalarning bad sadosi, olov va tutun aralash yer uyumlarini ko'kka irg'itib to'kiladi. (O.) 5. Shunday suxbatlarni tez-tez uyunshirib, yoshlari bilan inoq bo'lib olishga nima etsin! (J.Abd.) 6. Ko'z ochib yunguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo'ldi. (A.Q.) 7. Ana shu toq qishlog'ida bunday qoyatosh serob, ular yo'lkalarda zinapoya, arislarda ko'priq, chashmalarda bosma, choyxonalarda supa vazifasini o'taydi. (S.Ahm.) 8. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi. (A.Q.) 9. Nima semon ketardi, o'n besh mashina keltirsak bemaloly

etadi. (S.Ahm.) 10. O`zingizdan kolar gap yo`q, bolam, o`zbekning nimasi ko`p – to`y-hashami, ma`rakasi, ming turli luzumati. (J.Abd.)

13-mashq. O`qing. –lar qo`shimchasining ma`nolarini aniqlang.

1. Quvg`inlik odamni nima ahvollarga solmaydi, axir?(J.Abd.) 2. – Shunaqami? U kishi ham diplom yoqladilarmi? – dedi Otaqo`zi kesatib. (O.Yo.) 3. Ne mashaqqatlar bilan o`rnidan turib, soatiga qaradi. (A.Q.) 4. – E, o`zlariga qolsa haliyam bo`lsa qo`l qovushtirib o`tirmoqchi emaslar. (O.Yo.) 5. Yo manman degan, o`zi xon, ko`lankasi maydon bo`lib yurgan ne-ne zo`ravonlarning tagiga suv ketganidan bexabarmilar akamlar? (O.Yo.) 6. – Qayoqda deysiz, bizni nazarlariga xam ilmaydilar shoir akamlar! (O.Yo.) 7. Mayor qizning tirsagidan yigitlardek nazokat bilan ushlab, A`zamlarning oldiga olib keldi. (Sh.) 8. Toshkentlar qalay? Toza oboddir-a? (J.Abd.) 9. Husn bozorini kechqurunlar ana bu yerda tomosha qil! (O.) 10. Ertalab soat sakkizlarda bulut quyuqlashib, hamma yoqni qorong`ilik bosdi...(Mirm.) 11. Hirotlar ham juda notinch bo`lib ketdi, begin.(P.Q.) 12. Senlarning tufaylingdan yomon nomim yetti io`limga ketdi...(Ch.) 13. Nevaralarim qo`limga qaraydi deb olaqolgan edim, bellarimni urib yubordi.(Sh.)

14-mashq. Egalik qo`shimchalarini olgan otlarni aniqlang. Ko`chirib, egalik qo`shimchasi tagiga chizing, shaxs va sonini so`zning ustiga yozing.

1. Maktab yoshlilik gulshani, bolalar esa uning nihollari, 0'qituvchilar bu bog`ning oqil, mirishkor bog`bonlaridir. 2. Ona yerim - oltin tuprog`im. 3. Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho'rva Kulala ikkovimizga zo'rlik qildi. (A.Qahhor). 4. Ustozning bilim ziyoсидан foydalaniб, со`нgra uning о`rnini egallashga urinayotgan shogird daraxtning shoxida yurib, ildizini kemirayotgan hasharotni esalatadi. (A.Q.) 5. Turmush o`rtog`ingiz qanchalik mehribon bo`lsa, umringizga shunchalik umr qo`shiladi. 6. Esimdadir yigitlarni sherdil qilgan so`zlar, Xotiramda g`azab bilan porlab turgan ko`zlar. 7. Tikon kirsa qatingga kiynasidin, Chiqarsam erdi kirpiк ignasidin ko`rub xoru xas o`rnungda nihoniy, Sochim birla supursam erdi oni (A.N.). 8. Kim o`ylasa onalarini, Vatanim deb mehnat qilsa, unda inson fazilati bor. 9. U o`rta bo'yli, qorni katta, semiz, bo`yni kalta va yo`g'on, boshi ham katta va sergo`sht bir odam edi, bo`ynining yo`g`onligi va yuzining sergo`shtligi shu darajada ediki, uning gavdasi suv to`Idirilgan meshday tekis ko`rinar edi. (S.A.). 10. Hafizaxon, tog`angizga, Mavlon akaga, havasim keladi (A.Q.). 11. Yurganida atir ufurgan, Kelinchaklar ko`cha supurgan, Ko`chatlari doim qufurgan, Gulga to`lsin, ko`chang, mahallam, Yorug` bo`lsin kechang, mahallam (P.M.). (O`zbek tili grammatikasi 1 том 144-154- betlar).

15- mashq. Birlik va ko`plik sonda kelgan otlarri aniqlang. Ko`plik shaklda kelgan otlarning ma`nolaridagi farqlarni izohlaing. Gaplarni ko`chirib, ko`plik qo`shimchasi tagiga chizing.

1. Siddiq Azlarovich direktor bo`larmishlar (M). 2. Ko`m-ko`k, ko`m-ko`k, ko`m-ko`k. Dunyolarni qoyil qilgan quvalar ko`m-ko`k (H.O). 3. Gulzorlardan, bog`lardan o`tdim; bozorlardan, tog`lardan o`tdim (H.O). 4. Bu mahalladan ham yangi og`aynilar orttirganman (G'.G'). 5. U kishining so`zlagilari kelmadi: amir janoblarining oldida (G'.G'). 6. Xo`jayin, o`zlarining qo`llari tegmasa, o`g`ilchalarini yuborsinlar. 7. Sho`x qushchalar qo`shig`i qalblarga huzur bag`ishlaydi (K.Qahhorova). 8. Farg`onalik talantlarni hakamlar hay`ati samimiy qutladilar. 9. Ko`zlarga ravshanlik bag`ishlar Surma (M.Hasanov). 10. Qarang, oyijon! Buvimlar bizga nimalar olib keldilar. 11. O`sha mahallar biz ham yosh edik. 12. Lojuvard ko`kda sayrashib uchayotgan qushlar daraxtlarga qo`nib, saxiy quyosha madhiya aytayotgandek, basma-basga chug`urlashadilar. 13. Ona-Vatan ulug` bir kemadir, hu kemaga tushganlarning tillari har xil bo`lsa ham, dillari bir xil. 14. Husanning rangi o`chib, tillari aylanmay qoldi. (O`zbektiligrammatikasi It. 125-140-betlar).

Uyga vazifa: Gaplarni ko`chiring. Egalik qo`shimchasi bilan qo`llangan otlarni aniqlang. Otlarga egalik qo`shimchasi qo`shilganda o`zakning o`zgarishini izohlang.

1. Moshi siyrak dukkalab, Qovog`i kech gullagan. (Q.H.) 2. Butun qishlog`imizda bita Rajabiyimiz bor, xolos. (N.Biryukov.) 3. U ishkomning og`zida ko`ringan yorug`likka intildi. (S.An.) 4. Jonajon o`rtog`i Karima bilan hujralarida yuzma-yuz qolishga Munavvarning yuragi betlamas edi. (S.An.) 5. Bolalar yotog`ida ham hech kim ko`rinmaydi. (S.An.) 6. Ha, aytganday, Yo`ldoshevlar chakana radio emas, og`zini berkitsangiz, burni bilan gapirishdan ham toymaydigan odamlar. (A.Muhiddin.)

Mavzu: Otlarda kelishik kategoriyasi mavzusiga doir 16-20-mashqlarni bajarish.

16-mashq. Kelishik qo`shimchalarini va ko`makchilami aniqlang, kelishik qo`shimchal;iri qaysi kelishik qo`shimchalariga, kelishik qo`shimchalarini qaysi ko`makchilarga sinonim bo`lishini jadvalda o`zi bog`langan so`z bilan ko`rsating va bular haqida o`z xulosalarig`izni vozing.

1. Mehmолнarning (dan) ulug`i gapirdi. 2. Nima dedingiz? Gapingizni tushunmadini. 3. Shoir yangi yozgan she`rini o`qib berdi. 4. Olimga vijdon ham o`tkir ilm kabi zarur. 5. Oshdan oling, mehmon. 6. Radiodan sening quvnoq ovozingini hamma eshitdi. 7. Olimjon Farg`onadagi ukasi bilan telefonda gaplashdi. 8. Yigit tog` sabzisidan eb orom olgandan keyin, tog` orasiga qarab jo`hadi. (Said Ahmad). 9. Qatiqrri iching. 10. Shirin otga mindi. 11. Farhod dashtda kezdi. 12. Nodira ataylab qattiq ovozda gapirdi.

Jo'nalish kelishiligi -ga	Tushum kelishigi -ni	Chiqish kelishigi - dan	O'rin-payt kelishigi -da	Qaratqich kelishigi - ning
---------------------------	----------------------	-------------------------	--------------------------	----------------------------

17-mashq. Noto'g'ri qo'llangan kelishik qo'shimchalarini to'g'rilib va tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalarini qo'yib mashqni vozing.

1. Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin. 2. Ulug' sultanati bilan olamni titratgan Amir Ternur o'z ustozini oyoq tomoniga qo'yilishini vasiyat qilgan edi. 3. Keksalar oppoq soqollari namlangan edi. 4. U...voqeа...bexabar ekani...bilib, butun vujudi yengib bo'lmas bir horg'inlik sezdi. 5. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. 6. Sen Lutfiyning so'lim g'azali, Bulbulisan Hofiz gulshanin. 7. Yer haydasang, kuz hayda. Sening to'g'ringda anchagini yaxshi gaplar gapirdi. 9. Har holda, es-es biladi: o'sha oy juda ham katta chiqqan edi. (A.Qah). 10. Olimjon jo'rttaga qattiq ovoz bilam gapirdi.

18-mashq. O`qing. Otlarning kelishiklarini aniqlang.

1. – Ie, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. (A.Q.) 2. Xukumatga ginam yo`q manim. (O.Yo.) 3. Ali Qushchi kaftini qoshlari ustiga tutib, navkarlarni yaxshiroq ko`rishga urindi, lekin navkarlar mash'allarini boshlari uzra baland ushlab turishar, sersoqol yuzlari chala-chulpa ko`rinardi.(O.Yo.) 4. Bug'doyzor adog'i daryocha oqadi.(T.Murod) 5. Cholning qo'lidagi miltiqning uchi unga to'g'rangan, cholning ikki ko`zidan o't chaqnardi. (S.Ahm.) 6. Shoazimning bo`lmafur pichinglarga durust javob kaytara olmagani yana esiga tushdi. (P.Q.) 7. Asfalt tugab, traktor g'ildiraklari o'yib yuborgan yo'l boshlangach, mashina bir-ikki silkinib to`xtadi. (T.Malik) 8. Elchin bu gapga ishonkimasaka xam, vujudida uyg'ongan bir kuch to'pponchaga qo'l uzatishga majbur etdi. (T.Malik) 9. Ishdan, sovuqdan yorilgan qo'llari qamchinni bazo'r tutar edi. (O.) 10. Oqliqlarning ikkitasi mirshabxonadanga o'xshaydi. (X.T.) 11. Kelajak javharin axir biz uchun, Shu yurt yig'maganmi necha asrlar? (O.Matchon.)

19-mashq. Qaratqich, tushum va jo`nalish kelishiklarida belgisiz qo'llangan otlarni topib yozing.

1. Akram hoji Andijon ketgan edi. (A.Qod.) 2. Axir bu qizlar urush yillarida og'alari o'rnini egallab, dalada va qurilishlarda qanday mo'jizalar ko`rsatishdi.(O.) 3. Ikkita deraza tokchalari shu qadar keng ediki, unga to'shak solib, oyna panjarasidan hovliga qarab yotsa ham bo'lar edi.(S.Borodin) 4. Mana shu yaylovlarda qancha kolxoziyor chorvadan boy bo'lgan ekan, odamlar tog' etagida g'alla ekib, bog' qilib, behisob daromadlar olgan ekan. (P.Q.) 5. Direktorimiz Fizika bilan Kimyonidorilanuvchi dalaga jo`natadi. (T.Murod) 6. Bu vokea Yusuf Andugoniya qancha tashvish solib, o`rtaga Boysunqur mirzo tushib, o`g'lini zo'rfa jallod qo'lidan ajratib olib qolgan.(Mirm.) 7. Shuhrat bulutida suzgan chog'larida, dili qayg'uga begona, maishatga oshno damlarda ko`ngul dardi xakida xakida kuyladi ekan? (T.Malik) 8. Hovuz suvida bir kancha kizil olma yokutday tovlanib, jimillab suzadi.(O.) 9. Shahar borib so`nggi modadagi bir beretkani oldim.(G'.G') 10. Haqiqat gadoyi, insof jarchisi, Ezgulik qo'shinin sodiq soldati. (Shuhrat) 11. Bu jahoning rohatin ol, bor azobin menga ber, Senga bo'lsin barcha orom, barcha bedorlik menga.(E.Vohidov) 12. Otang bozor ketdi, keladi, - deydi onamiz. (T.Murod) 13. Men umrimda ilk bor g'o'za ekayapman.(T.Murod).

20-mashq Ko`chiring. Qartatqich kelishigida kelgan otlarni aniqlab, qanday shaklida (belgili, belgisiz, -n, -in shaklida) qo'llanganini aytинг. Belgisiz qo'llangan qaratqich kelishigidagi otni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko`chiring.

1. Olmos bo`lib yarqirar tog'lar, Yo'llaringga bosh urar bog`lar soyasi. (Z.O.) 2. Lekin pichoq tig'i tegar-tegmas tars yorilgan Yo`ldoshning shakarpalagi beqiyos shirin edi. (S.An.) 3. Uyimizning fayzi ham sизsiz, Farzandimni onasi- baxti. Taomimiz lazzati ham siz, Kiyimimiz dazmoli- taxti. (Mirm.) 4. Arab shohin tanbehin-ku berolardim bemalol, Ammo tojin izzat qilib chopib o'tdim men darhol. (Sh.Rustaveli.) 5. Sulton qasrin eshidigida tortdik otlar yuganin. (Sh.Rustaveli.) 6. Shamollarning sho'x o'yinida, gulzorlarning chaman qo'ynida, Soylardagi to'lqin bo'ynida Quloch yozdi bahor va yozim. (H.S.) 7. Xarsanglar bag`rida o'sar oq gullar, Yurganda oyoqni o'par nillufar. (H.S.) 8. Yonbag`irda o'tlaydi Kolxozi podasi, Yangraydi cho'pon nayin Mayin sadosi. (H.S.) 9. O'tmishingdan mangu yodgordir Ulug' rassom Repin ijodi, Nekrasovning qo'shiqlarida Kuylangandir burlaklar dodi. (H.S.)

Uyga vazifa: Ko`chiring. Tushum kelishigi shaklida kelgan otlarni topib, so`rog`ini, qaysi so`z bilan bog'langananini va gapdagи vazifasini aytинг.

1. Ketma-ket uzatilgan chelak va savtlarni keksalar yerga ag`dardilar, xirmon borgan sari ko`paydi. (O.) 2. Bir zumda mashinani o`rmonga olib kirdik-da, pastqam joyga yashirdik. Uning izini ham tekislab tashladik. (T.Rustamov.) 3. Gullar, to`s mang yo`limni, yellar, tutmang qo`limni, Namanganlik nozanin yo`limda intizormish. (H.S.) 4. Sen kuylading va birin-

ketin Borlig`imni chulg`adi xayol. (H.S.) 5. Xira qilar ko`zlarining yashini yulduzlarni, Go`yo quyosh yaqinlashib, qamashtirar ko`zlarini. (Sh.Rustaveli.) 6. Nolir edi: «Falak meni yuz baloga duch etdi, Hayot shavqin, nay-rubobni, chiltorlarni puch etdi». (Sh.Rustaveli.)

Mavzu: Otlarda kelishik kategoriyasi mavzusiga doir 21-25-mashqlarni bajarish.

21- mashq. Yasama otlarni qaysi so'z turkumidan ifodalanganligini aniqlang. Ularni o'zak va qo'shimchalarga ajrating, qo'shilmalarning qanday qo'shimcha ekanligini ayting va gapdagi vazifasini ko'rsating.

1. Barcha tillar aniqlikka intiladi, aniqlik esa qisqalik, ixchamlikni talab etadi. 2. Ekinni erta ekkan, hosilini erta o'rар. 3. Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lur. 4. Ha, filday cho'ng, chinorday chayir, chidamlilikda qayraqtosh, bilimlikda alloma va qalamkashlikda shoiri zamon edi G'afur ota (Mirtemir). 5. Katta tugunni boshiga ko'tarib oldi. 6. Ko'pchilikning haqi yetim haqidan yomon. 7. Bahor kelsa ham, havo unchaliq issiq emas edi. 8. Beodoblik-johillik urug'i. 9. Atoqli otlar ham grammatik jihatdan ko'plik sonda qo'llanadi. 10. Butun bir ro'zg'omi ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan. 11. Omon bo'l, onajonim, dil quvonchim, sururim, 12. Kamlikning kamoli bor, manmanlikning zavoli bor. 13. Mana, otin ham guvoh bo'ladihar, qaytarma qildiramiz. 14. Tortma ichidan bir dasta oq qog'ozlarni oldi. 15. Gullab yotgan o'rikzor xira pardaga o'raldi.

22-mashq. Noto'g'ri qo'llangan kelishik qo'shimchalarini to'g'rilib va tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalarini qo'yib mashqni vozing.

1. Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin. 2. Ulug' saltanati bilan olamni titratgan Amir Termur o'z ustozini oyoq tomoniga qo'yilishini vasiyat qilgan edi. 3. Keksalar oppoq soqollari namlangan edi. 4. U...voqeа...bexabar ekanı...bilib, butun vujudi... yengib bo'lmas bir horg'inlik sezdi. 5. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. 6. Sen Lutfiyning so'lim g'azali, Bulbulisan Hofiz gulshanin. 7. Yer haydasang, kuz hayda. Sening to'g'ringda anchagina yaxshi gaplar gapirdi. 9. Har holda, es-es biladi: o'sha oy juda ham katta chiqqan edi. (A.Qah). 10. Olimjon jo'rttaga qattiq ovoz bilan gapirdi.

Esda tuting. Ayrim otlar ko'plik tushunchasiga ega bo'lmaydi: 1) atoqli g` otlar; 2) mavhum otlar; 3) shaxs yoki narsada qo'llanadigan narsa-buyumlar; 4) donalab sanalmaydigan narsa-buyumlar; 5) kasb-hunar va fanga oid sohani bildiruvchi otlar.

23-mashq. 0'zingiz turli so'z turkumlaridan hosil bo'lgan atoqli otlarga misollar keltiring. Ularning qaysi so'z turkumidan ekainligini ko'rsating.

24-mashq. Og'zaki javob berishga tayyorlaning.

1. So'zlar qanday ma'nosiga ko'ra turkumlarga bo'linadi?
2. Atoqli va turdosh otlar ma'no jihatidan qanday farqlanadi?
3. Ot -so'z turkumining morfologik yasalishini tushuntiring.
4. Kelishik, qo'shimcha so'zlarini so'z ta.rkibi bo'yicha tahlil qiling.
5. So'zning Grammatik va lug'aviy ma'nolarini izohlang.

25-mashq. Gaplarni o`qing, chiqish kelishigidagi otlarni aniqlab, so`rog`i, ma`no xususiyati va gapdagi vazifasini ayting; ularni o`zi bog`langan so`z bilan birga ko`chiring, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.

1. Uning xatlariga Moskvadan, Leningraddan, Kiyev, Minsk, Ufa, Bratsk va boshqa shaharlardan javoblar kela boshladi. (I.R.) 2. Unga avval oq shohidan ko`ylak ikiyigizishdi. (O.Xalil.) 3. Amir kibrli tabassum ila yosumandan mamnun ekanligini bildirdi. (O.Xalil.) 4. Yoshlikdan husningiz jalb etdi meni, Ey olmos tog`larim – o'lkam gardishi. (H.S.) 5. Urush bo'lmasin, inson Ajralmasin baxtidan. (U.) 6. Bu o'ylardan yuragini alanga olgan Mirzo Ulug'bek tishini tishiga bosib otiga yana qamchi urdi. (O. Yo.) 7. Alisherdan ikki yuz qadamcha narida to'xtab, atrofni ko'zdan kechira boshlashdi. (L.Bat.) 8. Devorlarda, panjaralarda ganchdan ishlangan anvoyi gullar. (O.Xalil.) 9. Shamol essa tog`lardan, Ko'k ko'l jimirlar. (H.S.) 10. Bag`ishlangan yurtga umrimdan Zarracha ham yo`q shikoyatim. (Mirm.) 11. Shuhratga berilish –fe'l'an ojizlik, Daraxt qaqqayadi mevasizlikdan. Chaqmoymday yalt etib so`nmay sen izla G`avvosdek javohir qalb dengizidan! (Mirm.)

Uyga vazifa: Nuqtalar o`rniga jo`nalish yoki o`rin-payt kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko`chiring. Kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Navoiyning ko`zlar... o't chaqnadi. Mamlakatda yangi g`alayon ko`tarilganligi haqdagi xabar uning qalbi... g'azab olovini yoqqandi. (L.Bat.) 2. Tong... birinchi bor zavod... kelib, Egasiz dastgohga qo'ling uzatding. (Z.) 3. Siz jang... botirsiz, sizning yurak... Keksa bobolarning o'lmas nomi bor. (Z.) 4. Aldoqchi... va xoin... na vijdon bor, na subut. (SH.Rustaveli.) 5. Qishloq., kolxoz... keyingi yillard... ro'y bergan turli voqealar to'g'risida gap boshlandi. (O.) 6. Bu hol Davron... bir zumgina davom etdi. (T.Rustamov.) 7. Ajoyib sovut va dubulg'a kiygan bir otliq arab tulpori... qo'shin oldidan chopib o'tdi. (L.Bat.) 8. Ularni eshik... kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqori... boshladи. (O.Yo.) 9. Salqin saharlar..., bodom guli..., Binafsha labi..., yerlarda bahor, Qushlarning parvozi, yellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor. (Z.)

Ot -so'z turkumini takrorlash uchun savollar:

1. Ot turkumiga oid so'zlar qaysi turkumdagi so'zlar bilan birika oladi?
2. Ot turkumiga oid so^zlar nutqda har doim qanday shaklda bo'ladi?
3. Turlanish hodisasi qaysi so'z turkumlariga xos?
4. Qaysi qo'shimchalar narsaning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi?
5. Qanday otlar faqat birlikda qo'llanadi?
6. Yasama otlar qanday usul bilan yasaladi?
7. Ot -so'z turkumi qanday gap bo'laklari bo'la oladi?
8. Atoqli va turdosh otlar qanday farqlanadi?
9. Atoqli otlar qaysi so'z turkumlaridan ifodalanadi?
10. Ot turkumi qanday kategoriyalarga ega?
11. Ko'plik tushunchasini qanday otlar bildirmaydi?

SIFAT- SO'Z TIJRKUMI.

Mavzu: Sifat –so`z turkumi mavzusiga doir 26-30-mashqlarni bajarish.

26-mashq. Savollarni o'qing va ularga javob berishga tayyorlaning.

1. Sodda yasama sifatlar boshqa turkumdagi sodda yasama so'zları bilan qo'shimcha olish o'rni bilan farqlanadimi?
2. Tub sifatga sifat yasovchi qo'shinicha. qo`shilishi bilan yangi lug'aviy ma'noli sifat yasaladimi yoki so'z yasovchi qo'shimcha shakl yasovchi qo'shimchaga aylanib qoladimi?
3. Sifatning gapdag'i vazifasi qaysi so'z turkumiga yaqin bo'lishi mumkin?
4. Sifat nutqda qanday maqsadlar uclun q'o'llanadi?
5. Sifat otlashsa, butunlay otga o'tadimi?
6. Siz bilim olayotgan "O'zbek tili" darsligidagi «Sifat –so`z turkumi»ga oid ma'lumotlarni qaysi mualliflar darligidan o`qishingiz mumkin?
7. Qaysi so'z turkumlarida daraja bor. Ular qanday farqlanadi?
8. Boshlang'ich sinf «Ona tili» darsliklarida sifatning qaysi mundarijalari qaysi sinflarda o'rganiladi?
9. Sifatlar otlashganda qaysi gap bo'laklari bo'la oladi?

27-mashq. Ko'chiring. Yasama sifatlarni aniqlang. Ularni morfemalarga ajrating. Oolgan sifatlarni alohida vozing.

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
2. Uning arslonday ko'rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik ko'zlari... unga yoqadi (Oybek).
3. Mustaqillikdan so'ng Toshkent, Samarcand, Farg'onada gigant korxonalar bunyod etildi.
4. Xatiga qaraganda vafodor qiziga o'shaydi. (I.Rahim).
5. "O'zingiz ham ilon po'st tashlaydigan gap qildingiz-da", -dedi u xushomadgo'ylik qilib (I.Rahim).
6. Nomonjon yumshoq ko'ngil, qizdekkina yigit ekan. (S.Ahmad).
7. Nihoyat Azizbek ham yonidagi 45050 soidiq kishilar bilan qochib, o'daga qamalishga rnajbur bo'ldi. (A.Qodiriy).
8. Erkaklar xotining tila uzuklar olib beradi, o'z kiyim-boshini o'zi eplaydig'an xotiningiz borligidan suyunsangiz-chi. (S.Ahmad).
9. Ayniqsa, qiz bola uchun hayoli, iffatl, sirli-sehrli, iboli va ochiq chehrali bo'lishdan ham ulug'roq xusn yo'q. (M.Murodova).

28-mashq. Sifatdarajalarini guruhang.

Ko'm-ko'k, teppa-teng, benihoya, qop-qora, beqyos chiroysi, olov bola, kichikroq, hiyor kichikroq, shirinroq, bir-biridan go'zal, sarg'ish, qand-qand qovun, mutlaqo notanish, slio'x, jajji, yum-yumaloq, shayton qiz, o'ta noinsof, kattadan - katta, juda dahshatli, eng yaxshi, hammadan yaxshi, eng og'ir, sal g'alatiroq, tim qora, tilladdan ziyod, ko'kimtir, sal, hiyor, nimrang, kattagina, rostakam, yolg'ondakam.

Yuqoridagi sifatlarni fonetik, morfologik, leksik - morfologik, leksik -semantik usullari guruhiga ajrating. ("O'zbek tili grammatikasi". 1 tom 296-299).

29-mashq. Tushib qolgan so'zlarni joy-joviga qo'yib o'qing. Otlashgan sifat, sifatdoshlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.

1. Tohir rolida chiqadiganlar, Qora botir bo'ladiganlar frontda dushmanga qarshi jang qilgani otlanishdi. 2. Kecha razvedkaga borganlar bir qadam oldinga chiqinglar (I.R.). 3. Dunyoda el va yerga hiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, raziroq, mudhishroq jinoyat bormi? 4. Bo'ldiradigan ham xotin, O'ldiradigan ham xotin (A.Qahhor.). 5. Qochoqqa shafqat yo'q, qo'rqoqqa - humrat. 6. To'g'riga zavol yo'q, 7. To'g'ri do'stdan ayrimla. 8. Kerilganning to'yiga bor, maqtanganning - uyiga. 9. Sahnaga dasta-dasta gul ko'targanlar chiqdilar. 10. Kasalga so'z yoqmas, charchaganga - o'yin. 11. Xalqda "boshga tushganni ko'z ko'rar" degan so'z bor. 12. Intilgan elga yoqar. 13. Shokir topgan-tutganini gapirib berdi. 14. O'ziga o'zini maqtangandan qo'rq. 15. Adashganni yo'lga sol. 16. Yorini aldagani och qolur. 17. Kayfiyatsiz kishining ishi qachon o'ngidan kelibdi? 18. Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang! 19. Bunda bor harotat, muhabbat, shafqat va mehnat nonini ko'ramiz baham. 20. Issiq oshing bo'lmasa ham, iliq so'zing bo'lsin. 21. Hayr, yiroqqa qochgan so'qmoqlar. 22. Do'st boshga qarar, dushman-oyoqqalar. (Maqol).

30-mashq.

I. Berilgan gaplardan sifatning ma`no turlarini aniqlang.

1. Odam to'g'rilik va mo'minlik yo'li bilangma katta va yop-yorug' yo'lga chiqib oladi. 2. O'sha mayib turna cholning qo'lida shifo topib, yana o'z karvoniga qo' shilganini bilmaymikan (S.Ahmad). 3. Mo'minning chog'roqqina hovlisi. Bu yerda hamma narsa uy egasining kamtar hayotiga mos, Oldingi qatorda peshayvon, eski ko'rpachalar solingen. (E.Vohidov). 4. Domla shunaqqi ishonuvchan, sodda, laqillatish oson odam edi. (S.Ahmad). 5. Ta'biat qo'pol tushmasa, bu go'zal qiz och ra'no gulning tusida yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi.(A.Qodiriy). 6. Uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi. 7. Yuzida shirin xayolning mayin jilvusi bor edi. 8. Eng xushvaqt kunlarimda ham, noxush kunlarimda ham o'qiganim-o'qigan. 9. Onamning sochlari qop-qora edi. (Mirtemir).

1. Karakter - xususiyat bildiruvchi sifatlar:

2. Holat bildiruvchi sifatlar:
3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar:
4. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar:
5. O'r'in va paytni bildiruvchi sifatlar

II. "0'zbek tilining, izohli lug'ati" dan qo'shma sifatlarga yigirmata misol yozing, imlosiga e'tibor bering.

Uyga vazifa: Berilgan o`zak-morfemalarga sifat vasovchi qo'shimchalar qo'shib, sifat yasang.

1. Quyidagi so'zlardan qo'shma sifat hosil qiling, yoniga qavs ichida qaysi so'z turkumlaridan hosil bo'lganini ko'rsating va yozilish qoidasini tushuntiring. Xomkalla (sifat-ot). to'g'ri, kulcha, jigar, sarv, bodom, yoqa, qiziq, Uzun, och, katta, qora, yalang.

2. Sifatlar tarkibini tahlil qiling, ularni morfemalarga ajraring. Madadkor, xayoliy, madaniy, saxiy, salmodor, siyosiy, musiqiy, sitamgar, zotdor, tabiiy, jinoiy, falsafiy, xurofiy, jo'g'rofiy, quvnoq, oqsoq, g'ovak, qiziq, iliq, ma'rifiy, sha'riy.

Mashq. Otlashgan sifatlarni aniqlang, gapdagi vazifasini belgilang. Otlashganda tushib qolgan otlarni sifatdan keyin qo'yib o'qing, otlashgan sifat, silatdoshlarni soz birikmasi holida ko'chirib yozing.

1. Diinyoda yozuvlar qolmasdi balki. Razillar pastkashlar bo'lmas endi hech. (A.Oripov). 2. Yaxshilar ketidan agar choparsan, istaging baxtingni shunda toparsan. (Sa'diy). 3. Nodon-mushti bilan, dono so'z bilan. (Maqol). 4. Senga o'xshash bilmasvoy bolalarga ketgan vaqtimga achinaman. 9. To'la yurakni qo'rqtish qiyin. 10. Qozonga yaqin yursang, qorasini yuqadi. 11. Kiyimi qo'pol, lekin yangi va puxta edi.

Mashq. Ot va sifatlar tarkibini tahlil qiling.

1. Do'stlar to'planishdi va uzoq suhbatlashdik. 2. Tursunali bir-bir bosib, minbarga chiqdi va dona-dona gapirdi. 3. Sevinch, sehr to'la bir juft ko'z bilan Seni tabriklashga shoshildik, yeldik. (Y.Sulaymon). 4. Agar so'zlasang, o'ylab, bilib so'zlagil (A.Yugnakiy). 5. Oltin yerda qolsa ham, bilim yerda qolmas. 6. Ona bo'lmasa, dunyo quyoshsiz qoladi 7. Tunlari boshida aytning o'lanlar, Manguberdi ho'lib, Ulug'bek bo'lib, Toki ulg'aysin lashkari so'zlar. (N.Ostonov). 8. Quyosh bir mirzaterak bo'yi ko'tarilganda, Ziyoda opa ham musaffo osmonga yana bir marta tikildi va yana zinapoya bilan yuqoriga yurib, nevarasini ko'rib qolishini istadi. 9. Nahotki Alimardonning shuncha mehnatlari bemaqsad ketsa! (O.H). 10. Bizning dehqonlarimiz oq oltin yetishtirishadi. 11. Mamlakatimizda juda katta miqdorda kumush tola yetishtiriladi. 12 Mustaqillik xalqimizga erkinlik, ozodlik keltirdi. 13. Ahmadjon akademik litseyini bitirgach, olyi o'quv yurtiga kirmoqchi.

Mavzu: Son-so'z turkumiga doir 31-35- mashqlarni bajarish.

SON-SO'Z TURKUMI

Savollarni o'qing. Ularga qisqacha konspekt yozing.

1. Sonning morfologik ko'rsatkichlarini yozing-
2. Sonning so'z yasovchi qo'shimchalar orqali yasalmasligi, son-o'zak bilan boshqa turkum so'zlar yasalishini tushuntiring.
3. Sonning sintaktik xususiyatini aniqlang, misolar keltiring.
4. Sonlaming tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
5. Sonning ma'no turlari. Ularga misollar keltiring.
6. Sonlarning ma'no turlari qanday qo'shimchalar bilan farqlanadi?
7. Bir so'zi qanday ma holarda qo'llaniladi?
8. Sonlarning otlashuvi: Sintaktik vazifasini aniqlang.
9. Hisob so'zlarini izohlang.
10. Oltmisht, yetmisht, sakson, to'qson so'zlarinimg tarkibini tahlil qiling. I, 287-289. 4,109113-b.

31-mashq. Ostiga chizilgan so'zlarining turkumini qavs ichiga yozinig.

1. Odam borki, bo'rini ham o'rgatar qo'lga, adam borki, O'Z o'g'lini sololmas yo'lga. 2. Yo'q, bari-bir, kutmaydi (M.S.). 3. Ipak namunalariga bir-bir qarab chiqdi. 4. Biri-birining davomchisi, .bir-biriga ustoz. (G'.G'). 5. Bu mushtiparning birdan-bir orzusi shu edi-ku! 6. Sliunday o'lda doim bor bo'lsin. 7. Bir kun chol o'tin uchun ketibdi olmon tormon. 3. Gulomning bir talay kitoblari bor. 9. Sizni bir kishi chaqiryapti.

32-mashq.

I. Ko'chiring. Sonning ma'ino tularini aniqlang, qo'shimchalar ostiga chizing. Sonlarni hisob so'zlarini qo'shilgan holda o'zi bog`langan so'z bilan ko'chiring.

1. Uchinchi talaba ikki yil burun Shahrисabzдан tahsil uchun kelgan o'n sakkiz yashar Sultonmurod edi. (O.). 2. Polvon bir tuxum, ikki dona xurmo, yarim misqol sedana, besh dona bo'tako'z, bir qoshiq asalni bir piyola suv bilan mis idishda qaynatishga buyurdi (A.Q.). 3. Besh yil yashadi tog'day Vatanda, buyuk Alisherning asriy nidosi (G'.G'). 4. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda (H.O.). 5. Mirzayev shoshib qolib, bir kunning o'zida Latofatxonga ikkita xat yozadi. (A.Q.). 6. Siz menga ellik ming so'm pul ajratib, ikki-uch yil vaqt bering, manza shu bog'larni o'n marta yaxshi qilib beraman. (P.Qod.). 7. Saida uyga kech soat o'birlarda qaytdi. (A.Q.). 8. Kitobning yuz-yuz elliktachasi bizga berildi. 9. Terimchilarning uchdan biriga mukofotlar topshirildi. 10. Bugun birinchi sinf o'quvchilarining ikkinchi kelishlari. Qo'ng'iroq birinchi chalingandayoq, ular o'z sinflariga kirib ketishdi.

II. Gaplardagi berilgan sonlami soddha, juft, takror, murakkab turlarga ajratib, jadvalga yozing.

1. Lek erur dashman bisyor, bo'lsa u bir dona ham (E.V). 2 Jamoa xo'jaligining bir ming besh yuz- bir ming yetti yuz gektarcha yeri bor. 3. Uchala komandada ham bizning maktabimizdan o'qituvchilar bor. 4. 1998-yilda Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligini xalqimiz va butun jahon xalqlari nishonladi. 5. Maktabga 32 ta qalam, 105 ta o'chirg'ich, 61 ta

chizg'ich olindi. 6. Chorak yoki 0, 25, yoki o'n oltidan to'rt, yoki yigirmadan besh, yoki qirqdan besh. 7. Azamat 0,135 ni, 2,65 ga bo'la olmadi. 8. O'n-o'n besh bola safdan chiqdi. 9. Shiroq to'rt-besh kun yo'l bosib, dushman qo'shinini kimsasiz cho'lga olib chiqdi. 10. Yettovlon bir oromgohda dam oldik. 11. Birovga yaxshilik qilsang, o'zingga qaytadi. 12. Milliy istiqlolga birinchi qadam 1989-yil 21-oktabr «Davlat tili haqida» gi Qonunning qabul qilish bilan qo'yildi. 13. O'zbekiston Respublikasida sakkizinchı dekabr dam olish kuni deb e'lon qilingan. 14. Bayramga 5-sinfdan ham 10 ta o`quvchi keldi. 15. Yetti to'ti, mitti to'ti, yetimishtaga yetdi to'ti. 16. Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin. 17. Shaxmat o'yini Yevropaga sakkizinchı-to'qqizinchı asrda yetib keldi (G'uncha). 18. Birinchi hikoyam 1963-yil 17-aprel kuni «Toshkent haqiqati» gazetasida bosingan (O.Xusanov).

33-mashq.

I. 0'qing. Sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.

1. Yusufjon qiziq bir qishloq odamni kuldirdi. 2. Paxtaning 90 foizi birinchi navga qabul qilindi. 3. Bir zungina sabr qiling. 4. Bir pardali drama sahnaga qo'yildi. 5. 8 dona olma bir kilogramm kelishi mumkin. 6. Biz Ismoiljon bilan bitta qishloqdan bo'lamiz. 7. Dcrazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi. (H.O.). 8, "O'zbek tili grammatikasi"ni uch yil muqaddam o'qib chiqqanman. 9. Jonim bilan Jamoliddin aka, - dedi u, birinchi marta uni nomi bilan chaqirib. 10. Nechanchi yilda tug'ilgansiz? 11. Yigirma besh so'ni bo'lsa, hamma harajatga yetar ekan. (A.Q). 12. Besh minutda hovlini aylariib chiqasan. 13. Bundan bir hafta ilgari otam bilan uchrashgan cdik. (Minn.). 14. Yetti oyik pahlavondek O'g'ilchasi bilan keldi. Saodat mendan bir qaricli ham jili-nas edi 15. Zvenoga yetmish bir yashar To'xtabuvi Sarimsoqova saylandi (A..Q.).

II. 33-mashq. Quyidagi murakkab sonlarni so'z bilan yozing.

1. MSMXSI, MMLII, MMMDCCCLXXVIII, XXVIII, DCCC, CM, M.
2. Sodda tub sonlarni davom ettiring: 0 ...

III. Ushbu mashiqni o'qing, o'zingix bajarib ko'ring, farqini aniqlang va tushuntirib berishga harakat qiling.

1. Eng noyob kitoblardan biri 1840-yildu nashr etilgan. Unda 1680-yildan 1709-yilgacha bo'lgan voqealar yozilgan. Bu voqealardan biri odamning osmonga uchishni orzu qilgan birinchi harakati edi. 2. Tez uchishda qaldirg'ochga yetadigan qush yo'q. U soatiga 320 kilometr tezlik bilan uchadi. («G'uncha»). 3. Asalari qadim zamoniardan beri insonga hamrohining mehnatsevarligidan inson o'rnak olgan. Shuning uchun ham uchinchi-to'rtinchi asrlarda yasalgan tangada ham asalarining rasmi bor. 4. O'zbekistonning tog'li hududlarida Turkiston silovsini uchraydi. Silovsin mushukka o'xshab 4-5 tadan bola tug'adi. Bolalarining ko'zi o'n-o'n ikki kundan so'ng ochiladi. Ikkinki oyda silovsin bolalari onasi bilan birga, ovga o'rjanadi. (A.Aminov).

34-mashq. Berilgan savollarga mustaqil layyorlanib, so'ngra tushuntirib bering.

1. -ala qo'shimchasi hosil qilingan jamlovchi sonlar egalik qo'shimchasiz qo'llanganda gapda, asosan qanday so'z bo'lagi bo'lib keladi?
2. -lar qo'shimchasi sonlarga qo'shilganda sonlarning qaysi turi hosil bo'ladi? Gap tarkibida qo'llangan juft sonlar, asosan, sonning ma'nosi jihatidan qaysi turiga mansub bo'ladi?
3. Nutqimizda faol ishlatalidigan nechta sodda (tub) son bor?
4. -ala qo'shimchasi qaysi sonlarga qo'shilib kelishi mumkin?
5. Chama sonlar gapning qaysi bo'lagi bo'lib kela oladi?
6. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatalidigan hisob so'zlarni aytинг.
7. Sonning qaysi turi hisob so'zları bilan qo'llanmaydi?
8. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi qaysi qo'shimchalar sonning hammasiga qo'shila oladi?
9. Sonning qaysi turi gapda, asosan, hol vazifasida keladi?
10. Hisob so'zlar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?

35-mashq. Berilgan gaplardan sonlarni toping.

1 Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomon ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. 2. Bog'da yoz bo'yi doim ikki-uch kishi ishlab turadi. 3. Yigirma beshga qoldiqsiz bo'linadi. 4. O'n to'qqizdan oshmay tur, go'zal Yigit sendan shuni so'radi (H.O.). 5. Bitta gapirib o'nta kuladigan odati bor. 6. Tekshiruvda maktablarning beshtasi nainunali deb topildi. 7. Amakim shu yotganicha Sarvinishning yettisiga ham, yigirmasiga ham bora olmadi. (A.Q.). 8. Lekin ular yiqqaq kitoblar chol yiqqaq kitoblarning o'ndan biriga ham teng kelmaydi. 9. Paxlakorlarning uchdan biri fermer xo'jaligiga o'tkazildi. 10. ...qizariib-bo'zarib oyning yarmi ko'rinadi. 11. Bemorlar palatalarga to'rtadan joylashtirildi. 12. Ikkalasi navqiron raqqosaga bamisolgi sehrlanganday tikilishardi. 13. Domlalar ham bitta-bitta tarqala boshladи. 14. Ikkinchidan, ishlaydigan joyimning qandayligini bilib qo'yishing kerak.

Uvga vazifa: Gaplarni o'qing. Sonlarning ma'no turlarini (qavs ichida ko'rasating) aniqlang, tuzulishini aytинг.

1. Shri Lanka respublikasida choy bir ming sakkiz yuz yetmish beshinchchi yildan yetishtirila boshlangan (O.Mominov). 2. Bir daraxtda o'n ikki butoq, Uch yuz oltmis besh yaproq. (Topishmoq). 3. 15-yanvarda «Insonning yaxshi do'sti» mavzusida o'tkazilgan suhabatga 4-sinf o'quvchilar ham qatnashdilar. 4. Hindlarda to'qqizgacha sanoq tartibi bor edi. 5. «Boburnoma» da 1605 nafar kishi haqida ma'lumot bevosita ularning hayoti va faoliyatiga baho va munosabati bo'lsa, 1151 ta joy, 277 ta qavm-qabila va nasl nasab, 414 ta hayvon va o'simliklar, 40 ta kitob va risola nomi tilga olingan 18 ta maqol va hikimatli so'z hamda 94 ta shehriy parcha keltirilgan. («Tafakkur» dan). 6. Dilafro'z bilan Dilso'z ikkovlari oldin, Rashid keyin mashinadan tushdi (M.Qoriyev). 7. Ikkalang ham qoyil qilding, ikkalang ham qahramon (U). 8. O'n besh yillab erkalagan tilagim... bilan kelib tushdim sizning qishloqqa (Z). 9. Oltmishlarga borib qolgan bir mo'ysafid hassaga tayanib turardi. (O.U.). 10. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar (Maqol). 11. Siddiqjon yuzlarcha kishi og'ziga qarab turganini ko'z oldiga keltirdi. (A.Q.)

Mavzu: Olmosh-so'z turkumiga doir 36-40-mashqlarni bajarish.

OLMOSH-SO'Z TURKUMI.

36-mashq. Oividagi savollarga javob yozing.

1. Qachon, hech qachon, hech qaysi, allaqanday, allaqachon kabi olmoshlar qaysi turkumlari o'rnda qo'llaniladi? 3,30 l-b.
2. Olmoshlar ma'no va grammatic belgilarga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Qaysi olmoshlar birlik mahnosini ifodalaydi? 3,304-b.
4. O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini oliginda, qavsi shaxslarni bildiradi? - 3,306-b.
5. Qaysi olmoshlarda ta'kidlash ma'nosi kuchli? 3,306 •308-b.

37-mashq. Savollarga javob berishga tayvoilaning.

1. Bu, shu, o'sha, har, ba'zi, butun, qanday?', qanaqa?, qaysi?, qachon?, hech qanday, hech qachon, hech qaysi, allaqanday, allaqachon kabi olmoshlar qaysi turkumlari o'rnda qo'llaniladi? 3, 301-b.
2. Olmoshlar ma'no va grammatic belgilari ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Qaysi olmoshlar birlik ma'nosini ifodalaydi? 3,304-b.
4. O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olganda qavsi shaxslarni bildiradi? 3, 306-b.
6. Qaysi olmoshlarda ta'kidlash ma'nosi kuchli. 3, 306-308-b.

38-mashq. Ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qing, tushunchangizni konspektlashtiring.

1. Olmosh so'zining lug'aviy ma'nosi. Olmosh qaysi so'z turkumlari o'mida qo'llaniladi? 1, 332-b.
2. Olmoshning qanday grammatic belgilari bor?
3. Kishilik olmoshi u, ko'rsatish olmoshi u bilan qanday farqlanadi? 3, 304-305-b.
4. O'zlik olmoshi gapda qanday vazifalar bajaradi? 3, 307-b.
5. Shaxsni, narsani ularning belgisini qaysi olmosh turi ko'rsatadi? 3, 307-b. "i. Olmoshning qaysi ma'no turlari ega, kesim to'ldiruvchi, hol bo'lib kela oladi? 3,309-310-b.
7. Olmoshning qaysi ma'no turlarida turlanish bor? Turlang.

39-mashq. Ostiga chizilgan so'zlar qaysi so'z turkumi o'rniда qo'llanganligini qavs ichida ko'rsating.

- I1Shunday o'ka doim bor bo'lsin (H.O.). 2. Uning ko'nglini olishga bir inson topilmadi. 3. Sizni bir odam chaqiryapti. 4. Uyda faqat o'zi o'tiribdi. 5. U qo'rquvdan ne ahvolda ekanini o'zi bilar edi (A.Q.). 6. Zunnunxo'ja ne mashaqqat bilan iljaydi. (A.Q.). 7. Keksa qalbda nimalar borligini o'zgalar ne bilsin. 8. Saida bechoraning holi ne kechdi ekan. (A.Q.). 9. Tuz aynisa ne soladi? 10. O'zidan-o'zi qo'shiq aytadi. 11. O'sha-o'sha kelib turadi. 12. Kamtarlik-kamol, manmanlik-zavol (Maqol.). 13. Butun umrim sening bo'yningda, saharda qon tupursam, mayli-men Majnunman, she'rim, sen-Layli (U.Nosir). 14. Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa qolmadidi. (S.Ahmad.) 15. Tog' yo'lidan allaqancha yo'l bosish kerak. 16. Men o'z tilagimni unga bildirsam.
-

Esda tnting: Olmosh atamasi almashmoq ma'nosini bildiradi. Olmosh turkumidagi so'zlar ot, sifat, son, ravish o`rnida qo'llanadi. Ot o`rnida qo'llanuvchi olmoshlar: men, sen, u, biz, siz, ular, kim, nima, hamma, barcha, bari, har kim, har nima, hech kim, hech nima, hech narsa, allakim, allanarsa, allanima, birov, kimdir. Sifat o`rnida qanday, qaysi, bu, shu, shunday, olmoshlar qo'llanadi. U olmoshlar gapda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim, hol vazifalarini bajaradi. Son o`rnida necha, nechanchi, qancha oImoshlari qo'llanadi, ular gapda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim bo'lib keladi. Ravish o`rnida necha, nimaga, qalay, qani olmoshlari qo'llanadi, ular gapda hol, kesim vazifalarini bajaradi.

40-mashq. Testlarni yeching.

1. Sifat o`rnida qo'llangan olmoshlar qaysi gap bo`lagi bo`lishi mumkin?
 A. Sifatlovchi-aniqlovchi. V. Kesim. S. Hol. D. Otlashib ega bo`lishi mumkin.
 E. Barcha javoblar to'g'ri. 1, 33b.
 2. Son xarakteridagi olmoshlar gapning qaysi bo' lagи bo'la oladi?
 A. Sifatlovchi-aniqlovchi, kesim. V. Aniqlovchi, to'ldiruvchi. S. Hol, kesim, aniqlovchi. D. Ba'zan ega bo`ladi. E. Barcha javoblar to'g'ri. 1,334-b.
 3. Paxta deydi kulib, tovlanib, "Sevgan kishi meni maqtasin" (U.). gapidagi olmosh qanday ma'noni anglatadi?
 A. 1 shaxs kishilik olmoshi. V. 1 shaxs, predmet ma'nosи. S. 1 shaxs ta'kid ma`nosи. D. III shaxs. E. O'zga shaxsni anglatgan.
 4. Mening kishilik olmoshidagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini aniqlang.
 A.-ing. V.-ning. S.-ng.D. - men-o'zak. . E. so'z tarkibida tovush tushishi sodir bo'lgan.
 5. Ostiga chizilgan so'z qaysi so'z turkumi o`rnida qo'llangan? Bir odamga bir odamning yaxshiligi shuncha bo'ladi-da.
 A. Olmosh. V. Sifat. S.Son. D. Ravish. E.Ot.
 6. Qachondir bag'ringga qaytaman (S.Ahmad.) gapidagi olmosh ma'no jihatdan qaysi turga kiradi?
 A. Guman. V.So'roq. S. Belgilash. D. Bo'lishsizlik E. Kishilik.
 7. His-hayajon bildiradigan olmoshlar qaysi gapda berilgan?
 A. Nega buncha go'zal ko'rinar olam,
 Nega qarab to'ymas ko'zlarim?! (U.).
 V. Qani, bir ko'raylik-chi! Ma'ruza vaqtida yozilgan she'r qanaqa bo'lar ekan.
 S. Odam o'g'li **ko'z** ochar ekan, Seni ko'rib qadim osmonda, Na bo'lendir, nelar kechirgan? (H.O.).
 D. Qo'rqitolmas hech qachon dashman, chunki sevdim Vatanni, seni.
 E. Azizim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang (A.Q.).
 8. Gapdagi o'zlik olmoshi qaysi shaxs o`rnida qo'llangan? Mavsumni o'tkazmasdan kuyov qilsalar, o'zlariga ham yaxshi, bizga ham yaxshi bo'lardi.
 A. I shaxs. V. IIshaxs. S. III shaxs. D. O'zlik olmoshi ma'nosida kelgan.
 E. Ma'noni ta'kidlagan.
- Uyga vazifa: Quyida berilgan olmoshlarni ma'no turlari bo'vicha guruhlang.**
- Men, bir necha, har qanday, bir qancha, barcha, hech nima, bir narsa, hech qachon, sen, negadir, bir nima, qani, hech kim, kim, qanaqa, ana u, ular, har kim, qachondir, mana bu, shu, jami, allaqancha, har qancha, hech narsa, u, allaqayer, biz, qaysidir, hamma, birov, siz, qandaydir, qani, bu, nimadir, qayer, mana shu, har qanday, o'sha, allanechuk, ana shu, kimdir, nega, allaqaysi, har nima, qachon, har qaysi, qancha, allaqanday, o'z, qayer, qaysi, butun, yalpi, hech qancha, hech qaysi, allanima.

Kishilik olmoshi	Ko'satsis h olmoshi	Gumon olmoshi	So'roq olmoshi	Belgilash olmoshi	O'zlik olmoshi	Bo'lis hsizlik olmoshi

Mavzu: Olmoshlarning ma`no turlari yuzasidan 41-45-mashqlarni bajarish.

41-mashq. Ko'chiring. Olmoshlarm aniqlab, ustiga ma'no turini vozing.

1. Qanday bilay, birovning yuragini bilib bo'ladimi? (Oydin). 2. Men sizlar bilan majlis qilib, mana shu masalani o'ttaga tashlamoqchi edim. (A.Q.). 3. Mana, majlis ochiq. Kim gapiradi? Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma, nechukdir, o`ng`aysizlanar, qimtinar, yerga qarar edi. (A.C.). 4. Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan: - Nega, nega bo'lmas ekan!- dedi. - Bo'lsa nega indamaysizlar? Qani, To'xta xola, gapiring! (A.Q.). 5. U bularni ko'rib olishi, hatto allaqanday sirlarini bilib olish kerakdek edi. (Sh.Hol.). 6. Kimdir Siddiqjonning oilasiga xabar berib suyunchi olgani ketdi. (A.Q.) 7. Siz mening kimim bo'lasiz, amaki. (I.R.). 8. Men o'z-o`zimga deyman: Nahotki oz inuddatda shunchalik o`zgaribman. (Mirm). 9. Ular o'z qo'llari bilan nimalar yaratib, nimalar ishlab chiqarishga qod;r ekanliklarini bilib olishlari kerak. (J.Abd.). 10. Bir vaqt kelib, Miizachol ham shunaqa eskidan qolgan ot bo'lib qolsa, kelgan odam: "Buning nimasi Mirzacho'1?" desa ... Mening orzum, bizning orzuimiz mana shu! (A.Q.)

42-mashq. O'qing. Gaplardagi olmoshlarni aniqlang.

1. Men uning ko'zini o'yib olay, oshiq-ma`shuqlikni unga kim qo'yibdi, tirmizak cho'ri! (O.) 2. - ... Nurmatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da. (A.Q.) 3. Men u Xolmirzayevni emas, bu Xolmirzayevni yozganman. (S.Ahm.) 4. Nima, biz bu yerda shu chuqurlarga suv to'ldirib, o'rdak boqamizmi? (O.) 5. Xo'sh, endi o'zimizga navbat, o'zginamiz, ya'ni men nima qilaman, qayerga boraman? (G'.G'.) 6. Qani u, ko'zi yorib, bir parcha etda o'z istiqbolini ko'rorgan va unga baxt tilagan ona! (S.Ahm.) 7. Ahmadbekdek, mendek jangovar beklar uchun podshoh hozir sizdeklardan qanchasining bahridan o'tur! (P.Q.) 8. Atrofida nimalar bo'lyapti, kimir bor, o'zi kayerda o'tiribdi, bilmasdi.(S.Ahm.) 9. Shu asnoda birin-ketin hamma kelishdi, Xuddi o'sha shamol kabi tinmay yelishdi. (U.Nosir) 10. U Dildorni o'z tashvishlaridan uzoqroq tutishga, uni ehtiyoj qilishga har qancha urinmasin, bunga muvaffaq bo'la olmadni. (H.G'ulom) 11. Shu kundan boshlab o'zining dunyoda borligini, hatto unga kimdir azob berishi mumkinligini his etdi. (Yu.Shomansur) 12. Negadir, u tez-tez komandirovkaga ketib qolar, shunisi Nazokatga yoqmas edi. (J.Abd.) 13. Asadbekning kimligini, qo'sidan nimalar kelishini hech kim bilmasa ham, shu ayol biladi. (T.Malik) 14. Yuragimga sig'maydi, sig'maydi yuragimga hech narsa! (A.Q.)

43-mashq. Gaplardagi kishilik olmoslarini aniqlab, xususiyatlarini namunadagidek izohlab vozing.

N a m u n a : men – 1-shaxs, birlik, bosh kelishik.

1. Sen uchun martaba bo'lgan bu mojaro, bu mish-mishlar meni qandoq iztiroblarga solganini bilsang edi! (E.A`zamov) 2. Biz ko'chgandan keyin senlar buni ham qancha vaqtgacha cho'l qilib tashlab ko`yasanlar! (P.Q.) 3. Duradgorga bolta bilan randa qanchalik kerak bo`lsa, senga ular shunchalik kerak...(M.G.) 4. Nima balo bizdan arazmisiz, bobom xafalar.(J.Abd.) 5. – Shundoq jalada “chaqiriq”qa borishni bizga kim qo`yuvdi! – Sanobarxon o'tradagi jimlikni buzib koyindi. (Mirm.) 6. Bu xatoni biz tuzatmasak, kim tuzatadi? (P.Q.) 7. - Nima qilaylik, bu bu tog'da bizning sizga o'xshagan... Hulkarimiz bo'lmasa. (P.Q.) 8. Ammo siz menga yordamlashing, kayerda bo`lmasin qizni topishga bel bog'laylik. (O.) 9. Bu gaplarni sizlarga aytishdan murod nima? Murod shuki, xalq bu gaplarni bilishi kerak. (O.Xusanov) 10. Qayorda deysiz, bizni nazarlariga ham ilmaydilar shoir akamlar! (O.Yo.) 11. – Men nima! ...Men sizning oilangizga ...yaxshilik tilayman. (P.K.) 12. Menda nima qasding borki, shu ko`ylarga solyapsan? (Sh.) 13. Menikini qayerdan olardingiz, men bu yerdaman-ku? (O.) 14. Qalaysiz, xursandmisiz? Juda soz, do`stlarning xursandligi – mening xursandligim. (O.) 15. U qaysi ko`chada ketayotibdi, bu ko`cha unga tanishmi, yo`qmi, bu haqda o`ylamasdi. (S.Ahm.) 16. Ertaga biz ham ularning nasibasiga sherik bo'lib, magazindan go`sht olib yesak, davlat bizga kanday go`sht yetkazadi? (P.Q.)

44-mashq. Gaplardagi o`zlik olmoslarini aniqlab, xususiyatlarini namunadagidek izohlab yozing.

N a m u n a : o`zi – o`zlik olmosi, 3-shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini olgan, bosh kelishikda.

1. Shu topda, hozirning o`zida safarga otlangisi keldi. (S.Ahm.) 2. O'z bolasining fe'lini ona bilmasa, kim biladi! (H.G'.). 3. Professorning o`ziki uni ataylab kutib o'tirgan ekan... (Yo.U.) 4. Nimangiz boru, nimangiz yo`k, ayting, o'zingiz eplashtirasizmi yo odam chaqirtiraymi? (S.Ahm.) 5. Kim biladi, yigit bilan kiz yolg'iz o'tirishsa...(O.) 6. O`zi kim, nima tirikchilik qiladi, unisiga e'tibor qilmagan ekanman. (S.Ahm.) 7. Otdan shunday o'zimni tashladim-u, orqaga qaytdim. (A.Q.) 8. Muallim otadek aziz kimsadir, deb o`z so`ziga urg'u berdi Sidqiy. (Mirm.) 9. Muz olov bilan chiqisholmaganday, bular ham o`zlaridan qobiliyatliroq odamlar bilan chiqisholmaydi. (P.Q.) 10. - E, nimasini aytasiz, - dedi boshliq, o`ziga o`zi achinib. (T.Malik) 11. Kunda ikkita non o`ziga qolsa, shu katta davlat... (O.) 12. Yuzini ajin bosgan xomush yo'lovchi birinch bo'lib o`ziga keldi. (A.Nesin)

45-mashq. Gaplardagi ko`rsatish olmoslarini aniqlab, xususiyatlarini namunadagidek izohlab yozing.

N a m u n a : bu – bosh kelishikda, birlikda, otlashmagan.

1. Mana shular orqasida u, kamtarin mahalla baqqolining o`g'li Karim chittak – kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo`lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi – hozir kimsan Mirzakarimboy!.. (O.) 2. Dashtning kindigi mana shu yer. (O.) 3. Qaniydi, o'sha dalillar hozir qo`lga tushib qolsa, urug'ing o'ynab ketardi-ya. (J.Abd.) 4. Bu, o'sha, sen yo`qotgan tanga. (G'.G'.) 5. Qo`y sog'ish, ovqat pishirish o'shaning bo`yniga tushadi, a? (P.Q.) 6. Nafasi qisadigan kasali bor u

kishining. (S.Anorboyev) 7. Hozir u qiz qayda? (S.Ahm.) 8. Oling, bu Xolmirzayev, u Xolmirzaevga bizdan salom aytib ko`ying. (S.Ahm.) 9. Ammo yigit qizarib-bo`zarib so`zlar, shu bilan dardini oshkor qilar edi. (J.Abd.) 10. Shuni aytin-a, mundoq yarashtirib qo`yishni ham bilishmaydi. (S.Ahm.) 11. Rais qo`llarini orqaga qo`yib, katta qo`rada unga-bunga ko`z tashlab, otboqar yo aravakashlar bilan u-bu to`g`risida so`zlashib, kimni otalarcha koyib, kimni maqtab, asta yura boshladi. (O.) 12. Bu soyda, bu orolchalarda қanchadan-қancha sho`xliklari qolgan uning.(S.Ahm.) 13. Ikkinchidan, kim aybdor, buni bilish kerak. (O.) 14. – Bular charchash nima ekanini bilmaydi, - dedi choynini ho`plab usta Azim. (O.) 15. Qachon qarasang, bunisi bir taraf, unisi bir taraf, chakmonlarini ochib tashlab, chap qo`llariga o`rab olishgan. (S.Rahimov)

Uyga vazifa: Gaplardagi so`roq olmoshlarini topib, nimaga nisbatan so`roq ifodalashi bo`yicha guruhlarga ajratib yozing.

N a m u n a : kim – shaxsga nisbatan so`roq, bosh kelishikda.

1. Mening nimam bor, kimim bor. (S.Ahm.) 2. Nimalar qilishdi, qancha vaqt o`tdi, operatsiyani kimlar qildi – bilmayman. (S.Ahm.) 3. Mallaxondan beri yashayman, bolam, ne-ne xonlarning, ne-ne beklarning otlarini ko`rganman: ne-ne otlar o`z qo`limdan ham o`tgan. (O.) 4. Bugun ham shu to`g`rida direktorimiz bilan qancha tortishdim. (P.Q.) 5. Dunyoning qanchalar chehrasi o`zgardi, qanchalar yangiliklar ro`y berdi. (G.G.) 6. Odamlar o`g`ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho`kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorga sotishi mumkinligi to`g`risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. (A.Q.) 7. – O, nasr yozmoq uchun qanchalik ko`p savdolarni boshdan kechirmoq kerak, Mohim! (P.Q.) 8. Hali mo`ljaldagi tonnalarning qanchasi turibdi. (P.Q.) 9. – Nimaga yig`layapsan, qo`rqyapsanmi? – dedi novcha odam. (T.Malik) 10. Meni bu yerga nega olib keldi, nega tashlab ketdi? (A.Q.) 11. – Xo`, onasi, qanisan? – Poygakda iymanibgina Zevarxon ko`rindi. (N.Aminov) 12. Qani, aytinlar-chi, nimadan janjal chi ki |? – deya so`radi ko`nglidan ko`tarilmagan g`ubor bilan. (S.Anorboyev) 13. Qachongacha shunaqa yashab yuramiz. (J.Abd.) 14. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg`ayadi-yu, qachon o`zining nonini topib yeydigan bo`ladi! (G.G.) 15. Undan beri nechtasi al mashdi, nechovi kelib-ketdi – hisobini ham bilmaydi Elchiyev. (E.A`zamov) 16. Qayerda bo`lmasin, dalada qam, majlislarda ham dov Sobirdan chetlanibroq turar edi. (O.) ... - Bir qo`yning puli ekan, qayoqdan kelib, qayoqdan ketmaydi. (P.Q.) 17. - Qaysi mashina nechta reys qilganini yozib turaman, - dedi u sekingina. (J.Abd.) 18. Uning kimligini, kimi lar borligini va yurtdagi obro`sini Ahmadjon ana o`shanda bilib oldi. (H.G.).

Mavzu: Olmoshlarning tuzilishi jihatdan turlariga oid 46-50-mashqlar.

46-mashq. Gaplar tarkibidagi belgilash olmoshlarini ikki guruhga (jamlash va belgilash olmoshlariga) bo`lib, xususiyatlarini aniqlab yozing.

N a m u n a : hammasini – jamlovchi belgilash olmoshi, 3-shaxs birlidagi egalik qo`shimchasini olgan, tushum kelishigida.

1. Pulning hammasini Omon belbog`iga tugdi. (G.G.) 2. Hamma o`rnidan qo`zg`alib, ta`zim bajo keltirib turarkan, Husayn Boyqaro asta mag`rur yurib, boshqa xonaga o`tib ketdi. (O.) 3. Har qancha pul so`rasa beraveradi. (S.Ahm.) 4. Saltanat shularning barini kattalardan eshitgan edi. (Yo.U.) 5. Vatan har qanday qurolni yetkazib beradi, amin bo`linglar. (O.) 6. Har kimning ko`nglidagini yolg`iz bir xudodan boshqa kim bilsin! (A.Qod.) 7. Chunki Hadyaxon har qanday holatda ham o`zini tuta biladi. (I.R.) 8. Bitta-yu bitta bolam, har nima qilsam ham arziydi...(S.Ahm.) 9. Hammasi ham tushunsa, yaxshi bo`lardi, a, buvijon? (M.Ism.) 10. Ammo «ba`zilar” deb, qizarishga to`g`ri keladi. (I.R.) 11. Otasi o`rganiga o`n besh yil bo`lib qoldi, shundan buyon har qanaqa ishni yig`ishtirgan. (O.) 12. Yusufjonning kirim-chiqim daftaridagi barcha jonli-jonsiz mulkni o`rganib olibdi. (I.R.) 13. Qancha marta beli, qobirg`asi singan, oyoqlari majaqlangan: jamisi uloqdan. (O.)

47-mashq. Bo`lishsizlik olmoshlarini nimani inkor qilishiga qarab guruhlarga ajratib yozing.

N a m u n a : hech qachon – paytga nisbatan inkor.

1. Eshikdan kirmasdan turib, ketishni o`ylaysiz-a? Hech qayoqqa ketmayman bugun! (O.Yo.) 2. Mabodo bir gap bo`lsa, hech narsadan tap tortmaydi. (O.Yo.) 3. Usmonali do`xtir ikki kun bo`lsa, shu ikki kun hech kim uning ovozini eshitmasdi. (S.Ahm.) 4. Chiqayotganlar bilan quyi tushuvchilar orasida hech kimga halaqt bermasdan chaqqonlik bilan pastga yugurdi yana. (O.) 5. Ammo nazarida bu narsa hech kutilmaganda ro`y bergandek, allaqanday adolatsizlik bo`lgandek tuyuldi. (O.Hoshimov) 6. Boyazid hech qachon mudofaaga o`tmay, shiddat bilan o`z dushmaniga hujum qilib qolardi. (S.Borodin) 7. Ochig`ini aytса, bu yerda ilmiy jihatdan hech bir yangilik xam yo`q, fanga ilgaridan ma`lum yo`l. (O.U.)

48-mashq. Guman olmoshlarini aniqlab, xususiyatlarini izohlab yozing.

N a m u n a : *negadir – sababga nisbatan guman.*

- U kishi faqirni nechundir ko`p xushlamaydilar...(O.Yo.)
- Shu asnoda yomg'ir va shamol shovqini aralash qandaydir tovushlar eshitildi. (O.)
- Qaysi kuni redaktsiyaga kirib, qanaqadir fel`yetonni bosilayotgan yerida to`xtatib qo`yibdi. (J.Abd.)
- Shu vaqt kimdir uning ustidan bosib o`tdi-da, birdan to`xtab, yelkasidan tortdi. (O.)
- Mana endi, ularga termilib kimningdir ko`zlarini esladi. (J.Abd.)
- O`sha davrning murakkabligini, vaziyatning og`irligini, bu maqolani yozish to`g`risida qayerdandir, kimdandir topshiriq olganini aytib, obidiyda qilib qutulib ketdi. (O.Yo.)
- Lekin shu onda nimadir “qars” etdi. (O.)
- Shu payt allaqaydan militsiya yetib keldi. (S.Ahm.)
- Mehmonlar esa tepalab qayoqqadir boqishardi. (S.Anorboyev)
- Qayerdandir yelib-yugurib Ahmedov yetib keldi. (O.)
- Qaydadir bombalar yoriladi. (O.)
- Ota o`lgur birovning malayi bo`lsa ham o`lguday kekkaygan, takabbur. (O.)
- Ularnikiga chiqsam negadir yayrab ketaman. (X.To`xt.)
- Birovning mulkiga nega ko`z olaytirishadi? Nima haqlari bor? (O.U.)
- Shundan so`ng Karomat xola Shokir so`fining ostonasiga birov bola tashlab ketganini so`zlab beradi. (Yu.Shomansur)
- Tomog`iga esa bir nima tikilib qolayotganday. (S.Anorboyev)

49-mashq. Olmoshlarni tuzilishiga ko`ra guruahlarga ajratib yozing.

- Gap shu yerga yetganda, biz, ushbu saxifalarni o`qiyotgan hurmatli kitobxonga Afg`oniston tarixi haqida ikki og`iz ma`lumot berishni lozim topdik! (Mirm.)
- U qaysi ko`chada ketayotibdi, bu ko`cha unga tanishmi, yo`qmi, bu haqda o`ylamasdi. (S.Ahm.)
- U nimagaki erishgan bo`lsa, bariga shularning orqasidan erishgan. (S.Anorboyev)
- Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O`zbek oyim xotinlarning eslarini ham chiqarib ham yuborar edi. (A.Qod.)
- ... Endi, men sizga aystsam, biz birovga aql o`rgatsak tuzuk, nima dedingiz? (A.Q.)
- Ularning qaysi hovlidan panoh topganini hech kim ko`rolmaydi.(S.Anorboyev)
- Azizning bu fikrini hech kim rad etmaydi. (O.U.)
- Men uning har bir jangga qanchalik astoydil shaylanishini bilurmen. (P.Q.)
- Ularning bari jarohatlangan, kimi boshini ushlaydi, kimi belini ko`tara olmaydi. (O.)
- Hammasini tinglardim ammo o`xshashini topmasdim aslo. (H.O.)
- Xutor sistemasini tugatish bahonasi bilan qancha-qancha gurkirab turgan joylarimiz qurban bo`ldi. (J.Abd.)
- Shundan so`ng, Saidiyning nazarida, bu qiz ufqday bo`lib goldi: unga tomon qancha yoursang, u sendan shuncha uzoqlashadi. (A.Q.)

50-mashq. Gaplar tarkibidagi olmoshlarni to`liq morfoloqik tahlil qiling.

N a m u n a : *Men – kishilik olmoshi, ot o`rnida almashib kelgan, 1-shaxs, birlikda, bosh kelishikda.*

- Odamlar nimaiki orzu qilsa, hammasini ro`yboga chiqarar edim! (O.Yo.)
- O`z bolasining fe`lini onasi bilmasa, kim biladi! (H.G`.)
- Tirg`anib, loy sachratib yugurgan Gulnor, o`z eshigida bir nafas to`xtab, kechinmalarini onadan yashirishga qancha urinmasin buni eplay olmagan edi. (O.)
- Hadeb buzilaverganidan keyin u yog`ini kavlaydi, bu yog`ini kavlaydi, xullas, ichida nimasi bo`lsa, barini bilib oladi. (S.Ahm.)
- Qanaqa haykal qilmoqchisan, men shuni bilmochiman... (Mirm.)
- Aziz o`yladi, bu o`ylarning oxiri shu bo`ldiki, qanchalik qiyin bo`lmasin, uni yurakdan sidirib tashlash kerak, degan xulosaga keldi. (S.Ahm.)
- Necha kun mendan arazlab, ko`z yoshini oqizgan kim edi? (O.)
- Qayerda qanday qurilish borki, undan biror illat topmasa, ko`ngli o`rniga tushmaydi. (J.Abd.)
- Motor tovushidan qayerida nimasi yomon ishlayotganini darrov biladi. (S.Ahm.)
- Lekin gap nimadaligini hech kim bilmassi. (X.To`xt.)

Uyga vazifa: Olmoshlarga ko`chgan so`zlarni topib izohlang.

N a m u n a : kishi – ot olmosh o`rnida kelgan.

- Tor hovlida o`tiraverib diqqinafas bo`lib ketarkansan kishi. (O.)
- Baxt haqida ma`kul fikrni aytding, - deya uning fikrini bo`ldi boshkasi.(J.Abd.)
- O`sha narsa yuragini to`rida nish urib ulg`aymoqda edi.(J.Abd.)
- To`g`ri, kaminaning ishlarida kamchilik ko`p.(O.Yo)
- Ayrimlar esa gandiraklab kelib qum ustiga, ba`zilari esa yechinib-yechinmay karavotlariga o`zlarini otdilar.(J.Abd.)
- Lekin... kishi mansabni ko`dan bermasligini, hech kim uni o`z ishidan ololmasligini bilib turib, ketaman, deb gerdayishi bir boshqa ekan-ku, undan so`rab o`tirmasdan olib tashlashlari bir boshqa ekan!(O.Yo)
- Yo`q meni bir katta odam yo`qlagan ekan, telefon kiyaytchi, nima deydi...(A.Q.)
- Men ham (maqtanmay) birdan oldin, birdan keyin darsimni olib borayotirman. (G`G`.)

Mavzu: Fe`l-so`z turkumiga doir 51-55 mashqlarni bajarish.

51-mashq. Berilgan so`zlarni qo'shma fe'l, yetakchi va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarzida guruhlang:

Hayron goldi, yaxshi ko`raman, mashq qilyapti, hozirlik ko`ra boshladi, olib kelishdimi?, qizib ketdi, harakat qildi, quvonib ketdi, ko`rib goldi, kelib ketdi, bog`lab qo`ydi. olib keldi, ko`zi tushdi, qarshi oldi, olib kirdi, aytib berdi, yordam berib kelyapmiz, chaqirib goldi, ko`tarila boshladi, adashib qoladi, ko`karib chiqadi, xalal berib turardi, yo`l olishdi, va`da beraman, aytgisi keldi, qaror qildik, rasmga oldi, kasalxonaga borib, qurshab olishdi, xasharga chaqirib goldi.

1. Qo'shma fe'llar:
2. Yetakchi va ko'makchi fe'lli so'zlar qo'shilmasi:
3. Qo'shma va ko'makchi fe'lli so`z qo'shilmasi emaslar:

52-mashq. Mavzularni kospektlashtiring. Fe'lning bo'lishli, bo'lishsiz shakllari, fe'l nisbatlari, fe'lning mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi, fe'lning tuslanishi, fe'l shakllari (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) fe'lning tuzilishi, to'liqsiz fe'llar, yetakchi va ko'makchi fe'l qo'shilmasi.

53-mashq. Berilganlarni qo'shma fe'lga, yetakchi va ko'makchi fe'lga, so'z birikmasiga, iboraga guruhlab yozing.

Yoza oladi, semirib ketdi, devordan irg'ib tushdi, olib bordi, qattiq tovushdan cho'shub tushdi, xat olishib turdilar, bayon qildi, qo'lini sovuq suvgi urmaydi, tasdiq qildi, chiqib ketdi, olib keldi, kechikib ham qolibman, bilmay qoldi, ishlamay yurdi, sezmay turdi, o'rナashibroq oldi, qizarib-bo'zarib ketgah edi, olib qochdi, xonadonlar qurib ham, muzlatib ham, tuzlatib ham, tuyib ham oldilar, atrofga qarab-qarab qo'ydi, birovning aqli bilan yashamayman, ko'proq gapirdi.

1. Iboralar:
2. Qo'shma fe'llar:
3. Yetakchi va ko'makchi fe'llar:
4. So'z birikmalari:

54-mashq. Quyidagi o'zaklardan morfolofig usul bilan fe'l hosil qiling va fe'l yasovchi qo'shimchalarni alohida guruhlang.

Sekin, dasta, taroq, salom, taajjub, eski, ko'p, tun, gumon, yilt, ko'z, mayda, ikki, chuv, o'yin, qiyin, qora, oz, ko'k, gap, sen, siz, kech, tinch, boy, to'la, berk.

55-mashq. Fe'l nisbatlari qo'shinichalarini! e'tiboi- bilan o-rganing, qays. nisbat qo'shimchalari sinonim bo'lishini aniqlane:

Fe'l - fe'lidan tuzilgan qo'shma fe'l, yetakchni va ko'makchi fe'llarning shaklan o'xshashligini va farqli tomonini, ularning ma'no jihatdan boshqa - boshqa ekanligini yozma bayon qiling, (U.Tursunov. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 1992. -B.229-232; 361-363).

Uyga vazifa: I. Fe'l nisbatlarini aniqlang, turlari bo'yicha guruhlang.

Oldi, qoldiq, olishdi, borishardi, kengaymoqda, o'zlashtiryaptilar, taklif qilinadi, orzu qilishgan, kelmaydi. Tarqalgan, yashab kelgan, ko'chiriladi, ko'rindi, yurgizdi, boshlanadi, yurdi, nolimadi, tingan, uchratmadim, bo'yalgan, silkindi, seskandi, kuldirdi, qaratdi, qizarindi, gul ochildi, kirib keldi, to'kildi, yozishdi, kulishdi, qaytar, o'qitar, o'tkazildi, charaqladi, gulladi, ko'tarildi.

II. Berilgan fe'llarning nisbatini aniqlang vajadvalgajoylashtiring.

To'plandilar, oy ko'rindi, joylashdik, ko'rinardi,-qurildi, boshlandi. Uchirdi, uchirgan, uchirildi, parvoz qildi, qoldirildi, yurgizdi, otlandi, ko'rishishdi, ilintirdi, quvondi, keltirilmadi, yozgin.

Aniq nisbiit	Majhul nisbat	O'zlik nisbat	Birgalik nisbat	Orttirma nisbat

Mavzu: Fe'l zamonalari mavzusiga doir 56-60-mashqlarni bajarish.

56-mashq. Hikoyalarni o'qing. Fehllardagi zamon qo'shimchalarini aniqlab, ularni jadvalga joylashtiring.

1-hikoya:

Bulbul

Qo'shni tomondan bir qushning yoqimli ovozi keldi. Qobiljon devorga tirmashdi, lekin chiqolmadi.

-Dada nega bizning bog'imizga bulbul kelmaydi?- dedi Odiljon.

-Bulbul sendan qo'rjadi. Axir sen qushlarga kesak otib, mayib qilyapsan,-dedi dadasi.

Qobiljon o'ylanib qoldi.

-Rostdan ham bulbul bizning bog'imizga hech kelmasmikan-a? O'sha kundan buyon Qobiljon qushlarga kesak otmayapti. (Hakim Nazirdan)

2-hikoya:

Cho'pon

Azimning otasi cho'pon. U Qizilqumning «Yulg'inli» degan joyida qo'y boqadi.

Bir kuni otasi Azimga yaylovdan ikkita kiyik bolasini keltirdi. Azim ulami

korib sevindi.

-Ota, bitta kiyikchani o'zim boqmoqchiman, ikkinchisini Azizga bermoqchiman. Lekin kiyikchalar mendan hurkib qochyapti,-dedi Azim.

-Sen ularga sut berib boq, boshini sila. Shunda kiyikchalar senga asta-sekin o'rganadi,-dedi otasi.

(*Safar Barnoyevdan*)

57-mashq. O'tgan zamon fe'llarini topib, turlarini aniqlang.

Og'zaki. 1. Tong xo'rozi qichqira boshlagandan keyin mehmon qo'zgaldi. (G'.G') 2. Xizmatdan qaytib bir oz brigadirlik qildim, keyin meni raislikka sayladilar. (I.R.) 3. Qayrag'och, teraklarning ildizi yer bag'riga qattiq singgan.(O.) 4. U chiqqanda jiyani Otaqo'zi ko'chada saf tortib turgan mashinalarga odamlarni taklif qilmoqda, aftidan, ziyofatga olib ketmoqda edi. (O.Yo.) 5. Oftob botgan bo'lsa kerak, tevarak qorong'ilashib qolgan, havo sovib, yana kechagiday etni junjiktiruvchi ig'ririn boshlangan edi. (S.Ahm.) 6. Erta namozni Quddusi sharifda o'qigan edim.(G'.G') 7. Avazga hozir bu shabada yokimli salqinlik berardi. (P.Q.) 8. – SHu mahalgacha ishga, bo'lsa bo'lar, bo'lmasa rovlab ketar, menga nima, deb qarardim. (J.Abd.) 9. Shamni o'chirganda, atrof oqarib, havoda tong shabadasi g'irillar edi. (O.) 10. Shu sababdan Ummatalining yong'oq ekishi ko'plarga erish ko'rinnardi. (Sh.) 11. Shu tun qor tugul tosh yog'sa ham, sovuq ming darajaga chiqib ketsa ham, bu hol o'zgarmas edi. (T.Malik) 12. Baqrayib turib qancha-qancha jinoyatga yo'l qo'yayotgan ekanmiz. (Sh.) 13. Rahimbek olg'a intilgan sari, Azimning g'ashi kelar, ochiqrog'i, uni ko'rolmasdi. (S.Ahm.) 14. Pardavoy sizni birga olib kelaman deb turib, nimayam bo'libdi-yu, yakka o'zi jo'nayiverbdi, deng. (J.Abd.) 15. Shundan beri chittak shunaqa hassa izlab, shoxdan-shoxga sakrar emish. (A.K.) 16. Uchovlari ariq labiga cho'qqayibdilar. (S.Ahm.) 17. Tolibjon ichkari kirib uni yupatmoqchi bo'ldi. (S.Ahm.) 18. Paxmoksokol bir nimaning ilinjida o'tirganini sezsa ham, Asadbek to'xtamay o'tib ketmoqchi edi. (T.Malik)

58-mashq. Hozirgi zamon fe'llarini turlarga ajratib yozing.

1. Ayvonda hovliga orqa o'girib, bir kampir choy ichyapti.(S.Ahm.) 2. – Kimsan, axir, qo'rrib ketyapman, - deb qo'ydim.(X.T.) 3. – Zamonali? – dedi baland tovush bilan. Qattiq gapirilmasa ovoz yetib bormas edi. - Nima balo qilyapsanlar? (P.Q.) 4. Dehqoncharoq qilib yozildimi? Bu kishi sal tortinyaptilar. (Yo.U.) 5. Lekin hozir boshqa narsaga qoyil qolib turibman. (Yo.U.) 6. Tili bir, dini bir, urf-odati bir odamlar bir-birlarining qonini niman ni bona qilib to'kadilar? (T.Malik) 7. Qayoqqa qarasang, kambag'al, bekorchi, nonga zor odamlarni ko'rasan. (O.) 8.Shunday bo'lsa ham, mening bilishimcha, jadidlar yangilikni mayl qiladigan odamlarni yaxshi ko'radilar. (Ch.) 9. Bola o'qisa, foydasi o'ziga, keyin otonasiga tegadi. (O.) 10. Mana ikki hafta o'tdi. Dushman g'urralangan boshini Moskvaning tosh ostonasiga hamon urmoqda. (O.) 11. Lekin ko'chada qatnov, qiy-chuv borgan sari kuchaymoqda. (O.) 12. Bugun ikki haftadirki, u jiyanlarini yoniga olib guvala dumalatdiradi. S.Ahm.)

59-mashq. Kelasi zamon fe'llarini aniqlab, ikki guruhg'a ajratib yozing.

1. Ajal yoqasida yotibdi, shunda xam kynghlimni tinchitmoqchi, yig'laganimni ko'rib meni yupatmoqchi...(Yo.U.) 2. Boshqacha qilib aytganda, siz yosh olim o'tkazgan tajribalarga, umuman uning ilmiy ishiga shubha bildirmoqchisiz? (O.Yo.) 3. Ana xolos, nima kasb-kor qilmochisiz? (M.I.) 4. Oddiy haqiqatni kimga isbot etmoqchisan? (T.Malik) 5. Kim biladi, balki Mirhaydar otamni ham oyog'idan chalar bir kun...(O.) 6. Men sizni bir marta qimoya qilarman, ikki marta himoya qilarman, oxir-oqibatda himoya qilolmay qolishim mumkin. (S.Ahm.) 7. Azizjon hech qanday ilmiy asosga suyanmagan holda paxtachilikka yovvoyi pushtni kiritmoqchi. Yo.Usm.)

60-mashq. Kelasi zamon fe'llarini topib, turini aniqlang va «Kelasi zamon guman fe'li», «Kelasi zamon maqsad fe'llari»ni ikki ustun shaklida yozib, shaxs-son qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Men Hirotga Sulton Husayn Boyqaro hazrat oliylarining amri bilan to'ppa-to`g'ri jang maydoniga keldim. Ulug'sulton o'z fuqarolarini baxtiyor va badavlat qilmochilar,adolat yo'li bilan mamlakatni gullatib-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj bo'lgan har bir kimsaga ko'maklashmoqchilar. (L.Bat.) 2. Meni kutgil va men qaytarman O'limlarni qoldirib dog'da. (H.O.) 3. Faqat agar unasang, Yana bir shart qo'yardim. (H.O.) 4. Lekin davrni, ertagi kunni hisobga olmay ishslash mumkin emas. Buning uchun nimanidir bukish, nimanidir hatto sindirish kerak, kimgadir qattiq gapirib, kimnidir iylab yo'lga solish kerak, hatto ba'zi birovni ishdan chetlatishga to`g'ri keladi. Bu ishlar hammasi xamirdan qil sug'urgan

singari yengilgina bo`lmaydi. Bilim, kuch, iroda, ishonch, odamiylik kerak, texnikani o`quv bilan ishlata biladigan odamlar kerak. Bular barii vaqt talab qiladi. Vaqt esa har vaqt bizda ziq. (Shuhrat.)

Uyga vazifa: Gaplar tarkibidagi fe'llarni to'liq tahlil qiling.

1. Ana shu qishloqlardan bittasi Yorboshi deb atalar ekan. (G.G.) 2. Gapisaver, bu yerda begona yo'q. (S.Ahm.) 3. U nima to'g'rida gap boshlasa, oxirini shu yer islohotiga bog'laydi, Saidiy uchun qancha savollar chiqaradi. (A.K.Q) 4. O'yaymanki, shu yilning kuzidayoq Oltinsoyning o'ng tomonidagi yerlarini o'zlashtiramiz. (Sh.R.) 5. – Kechikdingiz, Zaynab endi qayda! – Komila qo'li bilan uzoqlarga ishorat etdi. (O.) 6. - U vaqt balki g'ami, hasrati ozayar, nima deysiz? (O.) 7. Hojimurod qalt-qalt titrar, qo'ynidagi bedanalar pitirlardi. (S.Ahm.) 8. Soy jimmijit, kimsasiz, faqat u yer-bu yerda o'tlab yurgan mollarning qorasi ko'zga chalinadi, olisroqda, to'g'onda baqalar qurillaydi. (O.Yo.) 9. Toshkent osmonida qoramtil bulutlar shitob bilan suzib, bir damda havo burqib, chaqmoq yaltiradi. (Mirm.) 10. Ikki tom bo'y pastda Sho'xsoy shovillaydi. (A.Q.) 11. Boy xavotirsirab kirib borsa, ma'mur ochiq yuz bilan kutib olib: «Bir maslahatli ish chiqib qoldi!» dedi. (Sh.)

Mavzu: Fe'llarni vazifadosh shakllari mavzusiga doir 61-65-mashqlarni bajarish.

61- mashq. Quyidagi savollarga og'zaki javob tayyorlang, tushuntirib bering.

1. Ravishdosh qo'shimchalari -b, -ib, -a, -y bir-biridan ma'no jihatdan qanday farqlanadi? 1. 375-376-b.
2. Harakat nomining qaysi belgilari ot so'z tukumiga o'xshaydi? 3.352-b,
3. Sifatdoshning qaysi belgilari fe'lga o'xshaydi?
4. Ravishdoshning qaysi belgilari ravishga o'xshaydi? 3. 357-b.
5. Fe'l shakllarining qaysi biri otlashadi, tushuntiring.
3. 354-b.

62-masliq. Quyidagi savollargajavob vozing.

1. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomlari yasovohi qo'shimchalarni yozing.
2. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomlari qavsi gap bo'laklari bo'lib kela oladi?
3. Fe'l shakllari yasovchi qo'shimchalarining qaysilari zamon ma'nolarini anglatadi?
4. Ravishdoshning tuslanish, tuslanmasligini misollar bilan asoslang. 3, 357-360-b.

63-mashq. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlarini aniqlang, ulaming gapdagagi vazifasini aniqlang.

1. On uchga kirgan yoshgina popukday qiz edi. (O). 2. Gulning birinchi g'unchasi kuttirib ochiladi. (S.Ahmad). 3. Yaxshi odamning boqishlari ham doim go'zal bo'ladi. 4. Yaxshilarning yoshi bo'lur behisob, Asrdan asrga o'tadi bedog'. 5. Men uchun har bir so'z bir she'r tuyular, Men uchun g'azaldir har bitta hijo, Ohangi she'r bo'lib qalba quyilar. Bu qutlug' til bilari so'zlangan dunyo. 6. So'zni yozuvda bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirib bordik. 8. Ko'z oshib yunguncha, qoramti osmon mavj urib turgan qor dengizga aylandi. (P). 9. Rejali ish buzilmas. (Maqol). 10. Shoxini yerga ekkan majnuntollar va onda-sonda teraklar ko'rinadi. (Yo.Sh). 11. Ko'p o'qigan ko'p bilar. (Maqol). 12. Gimnastika, yugurish, svuda suzish kabi mashg'ulotlar; sabzavot, poliz, maydonlarida ekin ekish, chopish, sug'orish kabi jismoniy mehnat kishining chiniqishiga yordam beradi

64-mashq. Berilgan so'zlarni fe'l shakllari bo'yicha guruhlang.

Haydash, idish, irmoq, to'qimoq, qatnov, ikkov, qo'shuv, o'tov, to'quv, tong otgach, ertalab, saharlab, sarg'ayib, o'tlab, ko'rishayotgan, sayrashmoq, paxmoq, qiziqqan, chiqquncha, olgani, qoqila-qoqila, shildirab, charaqlab, yaxshilab, misqollab, egov, to'qnashuv, bilish, o'qish, surish, oqish, qizg'ish.

1. Ravishdosh:
2. Sifatdosh:
3. Harakat nomi:
4. Fe'l shakllari emas:

Bilib qo'ying. Hovrgi o'zbek tllida so'z turkumlari o'n ikkita: Ot, sifat, son, ulmosh,fe'l, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal so'zlar, taqlid so'zlar, undovso'zlar.

65-mashq. Gaplardagi ravishdoshlarni aniqlab, namunadagidek to'liq ta`rif berib yozing.

N a m u n a : kelib - -ib yordamida yasalgan, holat ravishdoshi, tuslanadigan ravishdosh, bo'lishli.

1. Biroq samolyotlar balodor yuklarini aniq "tartib" ham "vazn" bilan ag'darib, yangi yuk uchun balandlashib jo'narkan, nogahon qandaydir qizil yulduzli samolyotlar o'qday uchib keldi. (O.) 2. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? (P.Q.) 3. Kun chiqish yoqni mo'ljallab ketyapman-ku, yana nima? – dedi Asqar hansirab va boshidan kaskasini olib yerga to'ntardi. (O.) 4. Tong xo'rozi qichqira

boshlagandan keyin mehmon qo'zg'aldi. (G.G.) 5. Asfalt tugab, traktor g'ildiraklari o'yib yuborgan yo'l boshlangach, mashina bir-ikki silkinib, toxtadi. (T.Malik) 6. Tiz cho'kib yashaguncha, tik turib o'lgan yaxshiroq. (H.H.)

Uyga vazifa: Gaplар таркебидаги сифатдосларни топиб, намунадағидек то'лиқ таҳлил қилиб ўзинг.

N a m u n a : o'qigan - -gan yordamida yasalgan, o'tgan zamon sifatdoshi, bo'lishli, otlashmagan.

1. Kim biladi, Sidiqjon bilan o'tkazgan yigitlik yillarini eslayotibdimi, yo'qtog'an aziz og'aynisi uchun ichidan yig'layotibdimi. (S.Ahm.) 2. Tayyor, tasdiqlangan loyiha turganda, hali tajribadan o'tmagan, "chillaki" loyihani kim nazarga ilardi deysan. (J.Abd.) 3. Kim bilan olishayotganini , oqibati nima bolishini biladi. (T.Malik) 4. Orada bir chora sig'adigan zarang kosalar aylanib yuradi. (G.G.) 5. Uch yoshga kirganda, bulutga sakraydigan, tuyog'idan o't chaqnaydigan ot bo'ldi. (S.Ahm.) 6. Umarali dam kulardi, dam xafa bo'lardi. (O.) 7. Oyoqlari jonsiz, uvushgan, sovuq nam havo suyaklarini ninalardi. (O.) 8. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro, Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo. (M.Bedil) 9. Kuz xunukmi, chiroylimi, baribir marra oldin bitirganniki. (O.) 10. Bilaman, bilganim bilan qandoq qilaman, - dedi nochor bir ohangda Xolmatjon. (S.Ahm.) 11. ...yuziga ro'molini tushirib piq-piq yig'layotgan ayolning yoniga o'tgan ham ediki, eshik ochilib, Chavandoz ko'rindi. (O.Yo.) 12. – Zinapoyalar bo'ladi, juda istagan odam o'shalardan yurib, suv bo'yigacha tushaveradi. (P.Q.)

Mavzu: Ravish-so`z turkumi mavzusiga doir 66-70-mashqlarni bajarish.

Etsa tutnig. Ravish biror so'z bilan bog'lanib, birikma hosil qilganda, o'z shiaklini o'zgarilmaydi, hech qanday so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha olmaydi.

66-mashq. Savollarga javob qiling, qisqacha konspektlashtiring.

1. Qaysi so'z turkumlari o'zidan yasaladi?
2. Ravishlar qaysi so'z turkumlariga bog' lanadi?
3. Ravish qanday morfologik belgilarga ega? 1, 528-529-b.
4. Ravish qaysi yasovchi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi? 144-145-b.
5. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari. 4,144-145-b.
6. So'z qo'shish bilan ravish yasalishi. 1,533-535-b.
7. Boshqa turkunning ravishga ko'chishi. 1,536-537-b.
8. Ravishlarning ma'no va grammatik turlari qaysilar? 4,142-144-b.
9. Ravish darajatari qanday hosil qilinadi? 1, 540-b.

67-mashq. 1. Berilgan so'zlardan ravish vasang, qo'shimchalar ostiga chizing.

1. 0'zbek, siz, ko'p, o'zi, do'st, orsiz, uzun, oy, mag'nir, shunaqasi, chinakam, qanaqa, bitta, bo'g'in, tonna, egat, oy, mag'rur, itoat, qism, javob, ruh, tasodif, hali, yulduz, uylagan, butun, ost-ust, och-to'q, yoz-qish. 2. Quyidagi ravish yasovchi qo'shimchalar bilan ravish vasang:
-ona... -larcha, -lab, -an, -n, (-in), -inch, -lig'icha, -lay, (-layin). 3 .Quyida berilgan so'zlar yordamida sintaktik usul bilan ravish vasang:
har... shu...
hech... o'sha...
bir... bu...
4.Qisqa takror yoki yarim takrorlar bilan bir necha ravish vasang:

68-mashq. Berilgan so'zlarning qaysi turkumga kirishini aniqlang.

O'zidan-o'zi, boy-davlat, nomma-nom, issiq-sovuq, aqyash-uyqash, yaqinda, to'xtovsiz, uzoq-yaqin, bu yoqqa, lim-lim, uylagganamo, sersut, birin-ketin, zig'ircha, uncha-muncha, lo'ppi-lo'ppi, og'ir-oyoq, kechqurun, serzavq, hazilnamo, butunlay. Qo'lli ochiq, pishiq, shu erda, har kuni, uzun, lo'nda, tosh ko'ng'il, hyech mahal, bir boshdan, badjahl, uncha-muncha, besaranjom, oysimon, darnba-datt, qator-qator, olimnamo, galma-gal, uzundan-uzoq, qisqa, maqtanchoq, bekordan-bekorga, to'g'riga, chindan, yopishqoq, sezgir, o'shanda, shoshmasdan, tepa.

69-mashq. Ravishlarni aniqlang, turini vozing.

1. Sizni O'zbekiston Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan guruhimiz shodiyonasiga lutfan taklif etamiz. 2. Mardona ishladi, zafarlar quchdiq. 3. Bitta ham kulmadi. 4. Bir shingil hazil eshitning. 5. Dehqon-fermer shu yili 35 ming pud g'alla, 76 tonna go'sht yetishtirdi. 6. Qancha-qancha uylar suv toshqindan zarar ko'rgan edi. 7. Shu payt hovli tomondan kimningdir tovushi caiiitildi. (A.Qah). 8. Oddiygina shunday tanishdik-da, suhbatlasha ketdik. (Liyg'un). 9. Endi siz qachon hisob berasiz? (A.Q.). 10.Ozgina tuproqni til uchi bilan yalab, ko'rdi-da, tupurdi. (O.). 11. Azamat ikkinchi sinfdan boshlab hamisha yonida - jazzi hisob mashinasi olib yuradi. 12. Matematik misollar va masalaia javobini juda tez va to'g'ri chiqaradi. 13. Dastlab Azamat javob berdi. 14. Mardlarcha kurashmoq mardlamang ishi. (S.A.). 15. Ro'paramdan behosdaii Nargiza chiqdi. 16. Hayiqdi. Yuragi duk-duk ura boshladi. 17. Yosh Ulug'bek odatdagidam ko'ra ertaroq o'ringa kirib yotgani uchun anchagacha uxlay olmadi 18. Qo'limga olgan chog'im, to'ri chiz, deb turasan. Atrofda egrilik ko'p. Ser, qayerdan bilasan?

Berilgan gapdan ravishlar sonini aniqlang.

1. Bahorda va qishda yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, yoz va kuzda hosil mo'l bo'ladi.
A.4ta;V.6ta; S. 2 ta; D.3ta; E. Ravish berilmagan;

2. Ravishi bo'limgan gapni belgilang.

A. O'zicha muhokama qilib ko'rsin (Uyg'un) V. Ta'limning birinchi kundanoq o'quvchilarni harflab emas, bo'g'inlab o'qishga o'rgatish kerak. S. Shu yerda Go'ro'g'li degan chiqibdi (F.Yo'). D. Mumtoz ashulalardan bir shingil eshitgilar kelibdi. E. Barcha javoblarda ravish bor.

3. Qaysi gapda ravishga doir so'z ko'p berilgan?

A. So'rab ko'ring avval siz, men hozircha panada tura-turay. (U).

- V. Bugun sening tug'ilgan kuning. Bugun uying to'ladi gulga (H.O.).
 S. Karomatxon yugurganicha ichkari kirib ketdi (A.Q.).
 D. Hali u yerdan, hali bu yerdan gulduros chapaklar eshitildi.
 E Poyezd meni sershovqin stantsiyaga tashlab, Yana qichqirganicha oldinga intildi. (S.Ahmad).
4. Qaysi javobda holat ravishi ishtirok etgan?
 A. Vodiyarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda (H.O.).
 V. Mirhaydar otaning yaxshiligini, foydasini ko'p eshitganniz. (0).
 S. G'ulomjon orqadan qarab qoldi, ammo qiz uzoqqa ketmadi (M.Ism.). D. Paxta dalalarida mehnatni, musobaqani qizitish pallas-hozir.

(0)

5. Miqdor-daraja ravishini belgilang.
 A. Astoydil, ancha, yuqorida.
 V. Hozir, oldin, hiyla.
 S. Bir oz, saljuda.
 D. Ochiqdan-ochiq, yuzma-yuz, zo'rg'a.
 E. Indin, mo'l, unda-bunda.

70-mashq. Berilgan ravishlами qaysi so'z turkumlaridan yasalganligini aniqlang vajadvalgajoylashtiring.

Zo'rg'a, hali, yayov, birdaniga, tasodifan, ertalab, qo'qqisdan, qasddan, bukri, mardona, qahramonlarcha, mutlaqo, bahorda, ko'p, ochiqchasiga, ko'plab, rasmian, javoban, makkorona, oldin, tasodifan, mardlarcha, qayta, ostin-ustin, bafurja, andijonchasiga, ataylab, bag'oyat, arang, hali zamon, so'ngra, halidtan.

Olmosh	Son	Sifat	Ravish	Taqlid so'z	Tub ravish

Uyga vazifa: Yasovchi qo'shimchalar vordamida yasalgan ravishlarni topib, qaysi turkumdan yasalganini aniqlang.

N a m u n a : otalarcha – ot turkumidan yasalgan.

- Demak, shohga ma`qullari durust aqcha olganlar, qolganlari kamroq yoki butunlay olmaganlar. (T.Malik) 2. Ularning nima deyayotganlarini bilayotgandek, gunohkorlarcha bosh egib ko'zlarini yerdan uzmay turaverardi. (S.Ahm.) 3. Men qaytara olmadim, - dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. (P.Q.) 4. Lekin bugun Rahmonov ochiq gapirgani durust bo'ldi, men ham ochiqchasiga olishdim. (P.Q.) 5. Sen ham yigitchasiga gapirgin-da, axir! (P.Q.) 6. Bunaka layoqatsiz odamlar talantlarni tabiatan yomon ko'radir. (P.Q.) 7. Tohir Robiya bilan faqat yashiriqcha uchrashar edi. (P.Q.) 8. SHu ikki kecha-kunduzda uning o'ylamagan o'y'i, xayolan kirmagan ko'chasi qolmadi... (O.Yo.) 9. Hozir ham bir burchakka tikilib, "Majma`ul faroyib" degan qasidasini yodaki aytga boshladi. (P.Q.)

Mavzu:Yordamchi so'z turkumlariga doir 71-76-mashqlarni bajarish. Alovida olingan so'zlar turkumi yuzasidan 77-80-mashqlarni bajarish.

77-mashq. Savollarga javob toping, qisqacha konspektlashting.

- Mustaqil so'zlar yordamchi so'zlardan nimasi bilan farq qiladi? 3,248.
- Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi? 3,249.
- Sof ko'makchilar qaysilar, ular qaysi so'z turkumlaridah o'sib chiqqan? 3,375..
- Ot, ravish, ravishdosh, sifatdoshdan o'sib chiqqan ko'makchi vazifasida qol'lanadigan so'zlar qaysi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni oladi? 6,184; 3, 379.
- Bog'lovchilar tilshunoslikning qaysi bo'limida qo'llanadi?
- Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar vazifalari jihatdan qanday ish bajaradi? 3,382-387-b.
- Kuchaytiruv, ta'kid, ayiruv, chegaralov yuklanilariga misollar keltiring.

78-mashq. So'zlami tmrkumlarga guruhang.

Hatto, axir, evoh, go'yo, orqa, kabi, balki, -oq, uchun, boshqa, tomon, bilan, ham, yoki, bir-bir, agar, ora, chunki, liolbuki, qarab, liattoki, oh, fu, tiss, qadar, garchi, faqat, deb, shuning uchun, ost, ich, yarasha, basharti, huddi, albatta, chog'li, shubhasiz, sari, old, bilan, shunday qilib, bo'yи, dovr, muvofiq, tepa, hamda, va, ham, ohho, g'ir-g'ir, ekan, beri, bo'lak, qiy-chuv, hamda.

Bog'iovchi	Ko'makchi	Yuklama	Boshqa so'zlar

79-mashq. 0'qing. Ko'makchilarini topib, yoniga ma'nosini vozing, so'ngra ko'makchilar.o'zi bog'langan so'z bilan qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganini belgilang.

- Olimjon Farg'onadagi ukasi bilan tehsfon orqali gaplashdi. 2. O'ktam gulzor yoniga darrov joy hozirladi. 3. Bu mavzu ustida odamlar bir-birlari bilan qiyiqib muzokaralar olib bordilar. 4. Anvar yuzidagi kulgingi yashirish uchun chetga qaradi. 5. Muhayyo bu bolaga havas bilan qaradi. 6. Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi. 7. Tinchgina, beg'am yashash uchun tug'ilmagaman. 8. Bahorga qadar sabr qilishga to'g'n keladi. 9. Gulnor ota-onasi siqig'i ostida boyga turmushga chiqishga ko'nikkandir. 10. Begoyim yer ostida ilon qimirlasa biladigan quv xotin. 11. Ikki yarim yil avval mehribon ota uni shaharga uzatadi. (0).

80-mashq. Bog'lovchilarini topib, turini beigilang.

1. Ikki do'st qo'llarini boshlari ostiga yostiq qo'yib, qum ustida chalqancha yotishar, go'yo shu holatlari bilan rohat qilmoqda edilar. (J.Abd.). 2. Asrlar bo'yи suv chiqarish uchun kurashlar boradi-yu, lekin bn kurash qolib ketaveradi. (J.Abd.). 3. Vazira bilan singlisi bir guruhsa o'qiydi. 4. Vazira singlisi bilan bir guruhda o'qiydi. 5. Biz hatto yakshanba kunlari harn dars tayyorlaymiz. 6. Gar shu eshitganim bo'lmasa ro'yo... 7. Qamishlar orasida goh boshi ko'rinar, goh suvgaga sho'ng'igandek yo'q bo'lib ketardi. (S.Ahniad). 5. Shunday ham siyosiy jumboqlar lavqulodda ko'p. 9. Ba'zilari buni bilib qiladi., ba'ziliiri esa bilmaydi. 10, Hayot go'zal, hayot maroqli, shuning uchun erka ko'ngil shod. (U). 11. Aniq, toj garchi yoqt zardir, xaloyiq boshiga bitgan balodir. (U).

Mavzu: Alovida olingen so`zlar turkumiga doir mashqlar bajarish.

UNDOV VA TAQLID SO'ZLAR

Mashq. Berilgan taqlid so'zlar bilan s(i'z birikniasi yoki gap hosil qilir.g. Ularni tovushga taqlid, holatga taqlid guruhlargii ajratib vozing.

Shildir-shildir, qirs, biyov-biyov, Pirr, ku-ku, chirs, yilt, chirt, chil-chil, dikir-dikir, milt-mill., girch-giinch, chug'ur-chug'ur, shalop, guv-guv, g'iz-g'iz, jiring-jiring, jarang-jurung, tarr, dik-dik, piq-piq, bilq-bilq, vishsh, tirq, qurs, big'-big',jaz-biz, gurs, kurt-kurt, mo'lt, qirs, pirt, tars, chirq, to'q-to'q, paq-puq.

Uyga vazifa: Savollarga javob tayyorlang, qisqacha konspektlashtiring.

1. Tovushga taqlidiy so'zlar, shu'la, harakat, holatga taqlid so'zlar qanday hosil qilinadi? 3,394-395-b.
2. Taqlidiy so'zlar tuzilish jihatdan qanday turlarga bo'linadi? 3,395-b.
3. Taqlid so'zlardan qaysi so'z turkumlari yasalishi mumkin? 3,395-396-b.
4. Taqlid so'zlar nima uchun mustaqil so'z turkumlariga kirmaydi?
5. Taqlid so'zlar gapda qanday sintaktik vazifa bajaradi? 3, 396-b.
6. Undov so'zlar mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi? 3, 391-b.
7. His-hayajon undovlarning nutqda qanday ahamiyati bor? 3,392-393-b.
7. Buyruq-xitob undovlari qanday ma'nolar ifodalaydi? 3,393-394-b.

Mashq. Testlarning javobini toping.

1. Rag'batlanirish ma'nosini bildirgan undovni belgilang.
A. Xormang ota! -Barakallo, og'g'lim.
V. Ey Po'lat-dedi Bahor kulgi aralash, - uyimizda shunday jang bo'ldiki....
S Oh, oyijonim, oyim xursandchilikdan xabaringiz bormi, D.- He tovba. Kimsan Mirxodi eding (A Muhiddin). E. Bu yerning qayeri kam Qrimdan.
2. Qaysi gapda taqlid so'z berilgan.
A.Kechagina chirsillab turgan qahraton qish birdan bo'shashdi.
B. Bir juft musicha pir etib qayoqdandir uchib keldi.
S. Yilt etib kunning ko'zi ko'rindi.
D. Tashqarida shir-shir yomg'ir yog'ar edi.
E. Momaqaldiroqning gumbir- gumbiridan uyg'onib ketdim.
- 3.Qaysi hukm to'g'ri? A. Undovlar kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llanadi.
B. Unodovlar gapdag'i bo'laklar bilan aloqaga kirishadi.
V. Undovlar gap bo'lagi bo'lib keladi.
S. Undovlar so'zyasovichilar bilan yasaladi.
D. Undovlar ohangjihatidan rang-barang.
4.Ajablanish, taajub hayratlanish ma'nolari ifodalangan undovli gapni belgilang. A. Iyi, nima uchun? Qarg'a- qarg'aning ko'zini cho'qiydimi?. V. Hay- hay, ko'pchilikdan yuz o'girmang.